

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
VETERINARIYA, ZOOTEKNIYA VA QORAKO'LCHILIK
FAKULTETI

5620600 – Zootexniya (tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishi

BOYMIRZAEV XURSHID FAXRIDDINOVICH NING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU : “Turli genotipga mansub birinchi to'g'imdagi
sigirlarning sut mahsuldorligi” (referativ tarzda)**

Ilmiy rahbar, dosent

Sh. Q. Amirov

**“Zootexniya, hayvonlar genetikasi
va urchitish” kafedrasi mudiri,
q.x.f.n., dosent _____ E.S Shaptakov
№_____ - sonli yig'ilish bayoni
“_____” _____2014 yil**

**Veterinariya, zootexniya va qora
ko'lchilik fakulteti dekani,
dosent _____N.O.Farmonov
“_____” _____2014 yil**

SAMARQAND -2014

Mundarija

bet

Kirish	4
I. Adabiyotlar sharhi.....	8
II. Tanlangan mavzu bo'yicha muammolarning qo'yilishi va qo'llaniladigan uslubiyatlar.....	15
III. Asosiy qism.....	17
III.1. Qora-ola zoti va uni chatishma avlodlarining sut mahsuldorligi..	17
III.2. Qizil cho'l zoti va uni chatishma avlodlarining sut mahsuldorligi....	28
III.3. Bushuyev zoti va uni ayrim ko'rsatkichlari.....	44
III. 4. Muammoning yechimidan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik....	57
III. 5. Ekologik muammolar, hayot faoliyati va texnika xavfsizligi.....	58
Xulosalar.....	64
Ishlab chiqarishga amaliy taklif va tavsiyalar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68
Ilovalar.....	72

Kirish

Qoramolchilik chorvachilikning muxim tarmog'i xisoblanadi. Chunki, qoramolchilik ishlab chiqarilayotgan sutning 99 % ni, go'shtning esa 50 % ni yetkazib berib, yer yuzida yashayotgan axolining chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda asosiy rol o'ynaydi. Istiqbol yillarida mamlakatimiz xalq xo'jaligining barcha jabhalarida, shu jumladan chorvachilik sohasida ham aniq reja asosida islohotlar o'tkazildi va bu muhim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan jarayon hanuzgacha davom ettirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki chorvachilikni barqaror rivojlantirish maqsadida uning huquqiy asoslari yaratildi. Bunga misol qilib, 1993 yilda qabul qilingan "Veterinariya to'g'risida"gi, 1995 yildagi "Naslchilik to'g'risida"gi Davlat qonunlari, Respublikamiz Prezidentining 2006 yil 23 martdagi "Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308 sonli va uning mazmunan davomi sifatida 2008 yilning 21 aprelida qabul qilingan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-842 - sonli qarorlarini hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining sohaga oid o'nlab qaror va dasturlarini keltirish mumkin. Buning natijasida chorva mollari bosh soni va ulardan olinayotgan chorvachilik mahsulotlari yildan yilga ko'paymoqda.

Yurtimizda agrar sektorning chorvachilik sohasida bozor munosabatlarini qaror toptirish borasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizim shakllanayotgani xo'jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil yetishning iqtisodiy tashkiliy va xuquqiy shart sharoitlarini tubdan o'zgartirib, provardida mulkchilikning turli shakldagi chorvachilik xo'jaliklarini raqobatchilik asosida faoliyat olib borishi ta'minlanishi takidlanadi.

Tadbirda yerishilgan yutuqlar qatori sohadagi o'z yechimini to'la topmagan ayrim muammolar, xususan mamlakatimiz qonunchiligida chorvachilikka oid xuquqiy me'yorlar doirasida ayrim bo'shliqlar mavjudligi haqida fikrlar bildirgan. Xususan chorvachilik yuritishning yekstensiv va intensiv texnologiyalarini qo'llash haqidagi xuquqiy me'yorlar, sug'oriladigan va lalmi yerlarda chorvachilik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini qonunchilikning ochilmagan qirralari sifatida yetirof yetildi.

Mamlakat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida yangi xuquqiy munosabatlar vujudga keldi. Ayni paytda chorvachilik, fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklari orasidagi munosabatlar, ularga doir soliq siyosati, shuningdek chorvachilik xo'jaliklari ozuqa ba'zasini tashkil yetish, chorvachilikni sanoat asosida yuritish, chorva fermalarini barpo yetishda ularning zoogigiyenik va yekalogik parametrlarini, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida chorvachilikni yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, turli shakldagi chorva xo'jaliklari orasida kooperasiya masalalari, chorva mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashni tashkil yetish borasida ham bo'shliqlar mavjudligiga ye'tibor qaratildi. Jumladan soxa rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi chorva ozuqa ba'zasini tashkil yetish borasida ozuqabop yekinlar yetishtiruvchi, tayorlovchi, ularni qayta ishlovchi korxonalar maqomi amaldagi qonunchilikda aniq belgilanishi kerakligi to'g'risidagi takliflar atroflicha o'rganildi. Shu bilan birga, boshqa yo'nalishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ham chorvachilik yuritishning xuquqiy asoslarini yaratish, aholining chorva mahsulotlariga bo'lgan yehtiyojini to'laroq qondirishga imkon yaratilishi haqida muloxazalar bildirildi.

Sohaning, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashdagi ahamiyati tobora o'sib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi iste'mol bozoridagi barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar sektor tarmoqlarida tayyorlanadi. Shu jixatdan qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni hamda ahamiyati "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", "2009 – 2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi

choralar” va “2010 yilda ish o’rinlari barpo yetish va aholi bandligini ta’minlash” kabi qator Davlat dasturlari qishloq xo’jaligida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar izchilligi hamda samarali natijalari taminlanishi borasida muhim ahamiyat kasb yetayotganligi, O’zbekiston Respublikasining konstitusiyasi va qonunlari, Oliy – majlis qarorlari va boshqa xujjatlari, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa qonun xujjatlariga, shuningdek “O’zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo’jaligi Vazirligi to’g’risida nizom” ga amal qilishi, mamlakatda agrar sohaga oid Davlat dasturlari ijrosi yesa nizomda rasmiy belgilab qo’yilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida chorvachilikni va uning bosh tarmog’i qoramolchilikni barqaror rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozimdir:

- Mamlakatimiz hududida rejali hisoblangan madaniy zotlarning mahsuldorlik ko’rsatkichlarini ushbu zotlar uchun “yaxshilovchi” hisoblangan, dunyo genofondiga xos bo’lgan oxirgi besh yil davomida Germaniya, Gollandiya, AQSh, Isroil, Belarus, Ukraina, Polsha va boshqa mamlakatlardan keltirilgan 30 mingga yaqin naslli hayvonlardan samarali foydalanish va ular bilan chatishtirish natijasida olingan 3,5 million boshga yaqin har xil genotipli chatishma avlodlarni talab va me’yor darajasida oziqlantirish. Eng asosiysi sun’iy urug’lantirishni yo’lga qo’yish.

-Mamlakat chorvachiligida milliy genofondni asrash va ularni takomillashtirishning samarali yo’llarini topish

-Mamlakatda mavjud bo’lgan 400 dan ortiq qoramolchilik, 30 dan ortiq qorako’lchilik, 13 ta yilqichilik, 9 ta parrandachilik, 5 ta echkichilik, 17 ta ipakchilik va 2 ta tuyachilik bo’yicha naslchilik xo’jaliklarida o’zining maqomiga xos bo’lgan zootexnikaviy va seleksion ishlarni tashkil qilish hamda ulardan maqsadli foydalanish.

-Mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyasini zamon andozalari asosida takomillashtirish.

-Chorvachilikda zamonaviy biotexnologiya usullarini qo’llash.

-Fan yutuqlari va ilg'orlar tajribasini keng tashviqot qilish.

-Eng asosiysi oziqa bazasini yaratish, buning uchun shartli mol boshiga ajratiladigan yerlardan unumli foydalanish, dala almashlab ekishga, oraliq va takroriy oziqabop ekinlar ekishga va uni hosildorligini oshirishga erishish lozim.

I. Adabiyotlar sharhi

Aholini sut va sut mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun sudor qoramolchilikni rivojlantirish muhim tadbir hisoblanadi. Mamlakatimizda hozirgi kunda sut yo'nalishidagi qoramol zotlaridan qora-ola, qizil cho'l va bushuyev zotlari rejali ravishda urchitilmoqda. Qoramolchilikda olib borilayotgan tadbirlar asosida sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari ma'lum darajada oshayotganligini ko'rish mumkin. Ayrim fermer ho'jaliklarida har bosh sigirdan 3000-3500 kg cha sut sog'ib olinayotganligi quvonarli hol albatta. Ushbu fermer xo'jaliklarida yem-xashak bazasi to'liq yaratilganligini ta'kidlash joiz. Shunga qaramasdan sigirlarning sut mahsuldorigini yanada oshirish uchun naslchilik ishlarini to'g'ri tashkil etish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda xorij davlatlaridan mamlakatimizga 30 000 boshga yaqin nasldor qoramollar keltirildi. Su'niy urug'lantirish punktlariga turli zotga mansub buqalarning urug'lari keltirilmoqda. Ulardan samarali foydalanish sigirlarning sut mahsuldorligiga ijobiy ta'sir etadi. Aksariyat fermer xhjaliklarida qora-ola va qizil cho'l zotini yaxshilash maqsadida golshtin (qora-ola va qizil tusli) zotining nasldor buqalarini urug'idan foydalanilmoqda. Chatishtirishdan olingan sigirlar birinchi bo'g'indayoq ona tomonidan sut mahsuldorligi bo'yicha ustunlik qilayotganligi ko'plab tajribalarda aniqlangan.

Shu bois turli genotipga mansub birinchi bo'g'in chatishma sigirlarning sut mahsuldorigini o'rganish ma'lum ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Tojikistonda golshtin zotli yaxshilovchi buqalar qora –ola zotli sigirlarni chatishtirishda hamda podalarni takomillashtirishda foydalanilgan (Sh.A.Akmalxanov , 1993; M.I.Ashirov, 1994; N.Axmadaliyev, 2000).

A.Belousov, R.Yusupov P.Zelenkov va A.Suleymanovlarning (2010) ta'kidlashlaricha Boshqirdiston Respublikasining Chekmagushev tumani «Базы» nomli kolxoz naslchilik zavodiga Gollandiyadan import qilingan golshtin zotli mollar xo'jalikning optimal saqlash va oziqlantirish sharoitlarida jadal o'sishi va

yuqori sut mahsuldorligi bilan harakterlangan. Gollandiya seleksiyasiga xos bo'lgan sigirlarning I– laktasiyasidagi tirik massasi 535 kilogramm , 331 kunlik sut sog'imi 6129 kilogramm, miqdori 3,84 foiz sut yog'i 235 kilogrammga va II– laktasiyasida tegishli - 564 kilogramm, 6620 kilogramm, 3,92 foiz va 260 kilogrammga to'g'ri kelgan. Servis davrining davomiyligi 111 kunni tashkil etgan.

Hozirgi paytda ko'plab mamlakatlarda qora-ola zotli qoramollarni takomillashtirish maqsadida bu zotga qarindosh golshtin zotining nasldor buqalaridan keng foydalanilmoqda. Chunki golshtin zotining sigirlari sut mahsuldorligi bo'yicha birinchi o'rinni egallab, ularning shuningdek yelinining mutanosib rivojlanganligi va mashinada sog'ish talablariga javob berishi, ekstererining yaxshi rivojlanganligi, ozuqani sut bilan yuqori darajada qoplashi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Turli mintaqalarda golshtin zotli buqalardan zotlararo chatishtirish yuqori samara berganligi ko'plab mualliflarning tadqiqotlarida ham aniqlangan. Masalan, B.P.Zavertyayev, P.N.Proxorenko (2000) ma'lumotlariga qaraganda, sut yo'nalishidagi qoramol zotlarini takomillashtirishda va sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda zotlararo chatishtirishdan rejali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, keyingi yillarda qora-ola zotli qoramollarni golshtin zotli buqalar bilan chatishtirish yuqori mahsuldor podalar va tizimlar yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Chunki golshtin zoti dunyoda genetik imkoniyati eng yuqori zot bo'lib, chatishtirish jarayonida bu zotning buqalari avlodlariga yaxshi darajada o'z irsiy belgilarini o'tkazish qobiliyatiga ega.

I.A.Paronyanning (2000) yozishicha, qora-ola zotli qoramollarni takomillashtirish o'rtacha yillik sut mahsuldorligi 3000 kgdan kam podalarda chatishtirish golshtin zotli buqalaridan foydalanish yaxshi samara bermaydi va bunda podaning o'rtacha sut mahsuldorligi oshmaydi va sutning sifati uning tarkibidagi yog' hamda oqsilning oshmasligi tufayli pasayadi. Podaning o'rtacha sut mahsuldorligi 3000 kgdan yuqori bo'lganda bunday zotlararo chatishtirish

yaxshi oziqlantirish va asrash sharoitlarida ko'zlangan natija beradi.

S.F.Pogodayev, Yu.F.Grechko (2002) ma'lumotlariga qaraganda, qora-ola zotli podalarda golshtinlashtirilgan sigirlarning golshtin zoti bo'yicha zotdorligining oshishi bilan sut xiliga mansub sigirlar salmog'i ham oshib borgan. Masalan, 1/8 zotdorlikdagi sigirlarda sut miqdori o'rtacha 4567 kgni tashkil etgan bo'lsa, 7/8 zotdorlikdagi sigirlarda 4830 kgni, sut yog'i chiqimi esa tegishli ravishda 163,3 va 179,2 kgni tashkil etgan.

N.Fenchenko, N.Xayrullina, V.Xusainov (2005) tadqiqotlarida qora-ola va golshtin zotlariga xos sigir va buqalarni o'zaro chatishtirishdan olingan sigirlarning sut mahsuldorligi ularning zotdorligi oshishi bilan oshib borgan va 7/8 zotdorlikdagi sigirlarning sut mahsuldorligi sog'in davridan 305 kuni mobaynida yog'ligi 3,88 %, 4111 kgni tashkil etgan va bu ko'rsatkichlar sof qora-ola zotli tengqurlarinikidan 0,19% va 105 kg yuqori bo'lgan.

Tadqiqotlar golshtin zotli buqalarning nasl qiymati ulardan olingan avlodlarning sut mahsuldorligiga va sutining sifatiga sezilarli darajada ta'sir etishni ta'kidlaydilar.

U.R.Soatov, U.N.Nosirov (2003) malumotlariga binoan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining sutchilik kompleksida Isroil golshtin buqalarining qizlari I - laktasiyada 4741 - 4894; II-laktasiyada 5190 - 5233; III - laktasiyada esa 5361 - 5432 kilogramm sut berib, 1 kilogramm sut uchun 1,21 oziqa birligi sarflagan.

R.N.Lyashuk, A.I.Shendakov, V.V.Sorokinlarning (2009) yozishlaricha, qora-ola zotini golshtinlashtirish 62,5 foizga yetkazilib, so'ng "o'z ichida" urchitish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Kelgusida esa faqat oziqlantirish va saqlash sharoitlarini yaxshilash evaziga chatishtirishni davom ettirish mumkin.

Rossianing "Zarya kommunizma" va "Lesnoye" nomli naslchilik zavodlari amaliyotida golshtinlashgan sigirlarning I- avlodi I- tug'ishda o'rtacha 5188 kilogrammdan 6210 kilogrammgacha sut bergan. Yog'liligi 3,80-3,84 foizga to'g'ri kelgan.

Golshtin zotining qoni avlodlarda ko'tarilishi bilan sut sog'imi qo'shimcha 291-295 kilogrammga oshgan. Qora-ola zotli tengdoshlariga nisbatan sut sog'imi 501 kilogrammga va sut yog'i 19,2 kilogrammga ko'tarilgan. "Lenin" va "Pushkinskoye" nomli naslchilik zavodlarida yanada yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan. Birinchi naslchilik zavodida golshtinlashgan sigirlar sut sog'imi 1999 yildan 2003 yilda 5475 kilogrammdan 8074 kilogrammga va ikkinchi naslchilik zavodida tegishlicha 6099 kilogrammdan 9035 kilogrammgacha ko'tarilgan (Ye.I.Saksa, L.Kuzina, 2001; T.A.Simonov va boshqalar, 2005).

L.P. Praxov, N.V.Vorobyeva, T.P.Loginova, A.V.Shishkinlarning (2010) malumoti bo'yicha Rossiyaning xo'jaliklarida qora-ola zotli mollarni golshtin zoti bilan chatishtirishda yuqori mahsuldor podalar yaratilgan. "Pushkinskoye" naslchilik zavodida II - bo'g'in golshtin genotipli sigirlar I – laktatsasida o'rtacha 8437 kilogramm, III - bo'g'inidagilari 8337 kilogramm, IV - bo'g'inidagilari 8090 kilogramm sut bergan.

Nosirov U (2008) va boshqalar olib borgan tajribalarida, "Milk - agro" MChJ xo'jaligida 1 laktasiyada G'_1 va G'_2 sigirlar tirik massasi 435,0 va 454,1 kilogrammga II laktasiyasida 486,6 kg va III laktasiyasida (G'_1) 533,4 kilogrammga, "Roxatoy" fermer xo'jaligida II laktasiyasida (G'_2) 429,8 kilogrammga teng bo'lgan. Qora – ola zotli G'_1 - golshtin genotipli sigirlar guruhi I tug'ishida – 33,3 %, III tug'ishida – 18,2 %, G'_2 – guruhining I tug'ishida – 56,8 %, II tug'ishida – 20,0 %, III va yuqori tug'ishda – 69,8 % sigirlar zotining standart talablaridan yuqori tirik massa ko'rsatkichlariga ega bo'lgan. Barcha guruhlardagi (172 bosh) sigirlarning zot standart talablariga mos keladigan qismi (80 bosh) 46,5 foizni tashkil qiladi. Shulardan 62 boshi (54,9 %). "Milk - agro" MChJ xo'jaligi talablariga mos. Yuqori vaznli sigirlar "Milk - agro" MChJ xo'jaligida "Roxatoy" fermer xo'jaligiga qora – ola zotli G'_2 – golshtin genotipli sigirlarda I tug'ishdagi tirik massasi (454,1 kg.) yetuk sigirlar tirik massasining (533,4 kg.) 85,1 foizni va II tug'ishdagilari (486,6 kg.) esa 91,2 foizni tashkil etgan. Ushbu rivojlanish holatini norma deb baholash mumkin. Qora-ola zotli G'_2

– golshtin genotipli sigirlar guruhida eng yuqori tirik massa I tug'ishda 563 kg., II tug'ishda 530 kg. va III tug'ishda 661 kg.ga ko'tarilgan.

V.G.Saropkin, Y. A.Svetova, S.N.Ivanovlar ni (2004) yozishlaricha, turli qora-ola zot tiplari golshtin zoti bilan chatishtirilganda buqalar xususiyati ular qizlarining texnologik xususiyatlariga ijobiy tasir ko'rsatgan. Yelinning kosasimon shakli 8 - 45 foizga ko'payib, sut berish tezligi 0,08-0,56 kg/min oshgan. Umuman olganda chatishma sigirlar yelining uzunligi, eni va chuqurligi ortib, yelin so'rg'ichlarini biroz qisqarishini kuzatganlar.

O'zbekistonda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Uyes Ideal 933122, Montvik Chifteyn 95679, Reflekshn Sovering 198998, Siling Traydjun Rokit 252893 buqa tizimlariga xos bo'lgan sigirlarning nasldorlik va mahsuldarlik xususiyatlari yaxshilangan (M.I.Ashirov, 1994).

Yu.Kotlyarov, N.Kulunduk, O.Yankinalarning (2005) tadqiqotlarida qora-ola zotli sigirlarni golshtin zotli buqalar bilan chatishtirishdan olingan sigirlar zotdorligining oshishi bilan sut mahsuldorligi ham oshib borgan. Uning miqdori I - bo'g'in chatishma sigirlarda qora - ola zotli tengkurlaridan 348 kilogrammga, II - bo'g'inda esa 627 kilogramm yuqori bo'lgan.

P.Proxorenko, S.Tyapuchkinalar (2005) yozishlaricha, qoramollar populyasiyasini genetik tamondan takomillashtirish ko'p jihatdan "yaxshilovchi" buqalardan foydalanishga bog'liq.

M.Dosmuhammedovani (2008) tajribalari shundan dalolat beradiki, qora-ola zotli sigirlarni Isroil golshtin buqalari bilan chatishtirishdan olingan II va III - bo'g'in (7/8) dagilarning issiqqa chidamlilik indekisida (64,0-64,5) o'zgarish kuzatilmagan.

A.Malishev, B.Maxov, Ye.Savelyeva, N.Loginov ning (2009) ma'lumotlariga ko'ra, Ulyanov viloyati OAO "Дивный - нефть" xo'jaligida Avstriyadan import qilingan golshtin zotli sigirlar I - laktasiyasida 3940 kg sut

bergan yoki qora - ola zotli tengdoshlaridan 993 kilogrammga ustunlik qilgan. Verdjiniya va Melmita laqabli golshtin zotli sigirlarning sut sog'imi 6000 kilogrammga yetib, onalari mahsuldorligiga yaqinlashgan.

N.V.Suliga, va G.P.Kovaleva (2010) tomonidan Vengriya seleksiya-siga xos bo'lgan golshtin zotli I tuqqan sigirlarni mahsuldorlik sifati sharoitlariga moslashish davrida o'rganilgan. Ularning genetik potentsiali yuqori jarajada namoyon etilgan (86,3 foizga) va 305 kunlik sut sog'im 6957 kilogrammga to'g'ri kelgan.

Boybulov B. Ashirov M. (2008) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning maxsuldorlik xususiyatlariga ko'plab tashqi muhit hamda irsiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Tajriba uchun 12 boshdan 3 guruh sof Bushuyev zotli sigirlar tanlab olinib, barcha sigirlarni oziqlantirish va asrash sharoiti bir xil bo'lgan. 1-guruh sigirlarning sog'im davrida sutining yog'liligi 3,93 %; sut maxsuldorligi 3418,8 kg, 2-guruhda bu ko'rsatkich tegishli 4,0 % va 3233,2 kg, hamda 3-guruhda 3,98 % va 3014,2 kg ni tashkil etgan. Sut yog'i chiqimi 1 guruhda 134,3 kg, 2 guruhda 129,6 kg va 3 guruhda 120,2 kg ni; 4 % li sut miqdori tegishli ravishda 3359; 3341,3 va 3004,2 kg ni, sutdorlik koeffitsiyenti esa 738,2; 704,9 va 668,9 kg ni tashkil etgan.

N.I.Biserova (1970) Samarqand tumani Bog'izag'on xo'jaligida qizil eston sigirlari DNK ga kiritilgan o'zining tengqurlariga qaraganda issiq iqlim sharoitida tirik vazni bo'yicha 29 kg ga, sog'im bo'yicha 603 kg ga, sut 1yog' chiqimi bo'yicha 29,6 kg ga, 100 kg tirik vazniga to'g'ri keladigan sutining chiqishi 81 kg ga sezilarli darajada kamayishi kuzatilgan. Sof xolda zotli sigirlar ko'rsatkichlarining pasayishiga issiq iqlim ta'siri va oziqlantirish darajasining juda pastligi sabab bo'lgan. Bu mualliflarning ko'rsatishicha qizil eston zotli duragaylarida qarindoshlik darajasi oshgan sari barcha ko'rsatkichlari (tirik vazni, sog'im, sutining yog' chiqimi, sutdorlik koeffitsiyenti) mahalliy mollarga taqqoslanganda ancha yuqori bo'lgan. Shuni ham qayt qilish kerakki mahalliy

sigirlarni qizil eston buqalari bilan (elita, elita rekordis) qon singdirish chatishtirishi natijasida tirik vaznning 83 - 132 kg ga, sog'imning 1255 - 1755 kg ga va sut yog'liligi 50 - 68 kg ga oshishiga imkoniyat yaratgan.

P.S.Sobirov (2009) Qizil cho'l qoramol zotini angler bilan chatishtirishdan olingan duragay avlodlarning xo'jalik belgilarini o'rganib quyidagi xulosalarga kelgan. Tajriba davomida I va II tuqqan F_3 duragay sigirlarning yeksterer ko'rsatkichlari, tirik vazni, sut maxsuldorligi va uning yog'lik ko'rsatkichlarining iqtisodiy samaradorligi bo'g'imlararo o'zaro solishtirganda II tuqqan sigirlar I tuqqaniga nisbatan ancha yaxshi natijalarga yega yekanligi aniqlangan.

Shunday qilib, turli zot va genotipga ega bo'lgan sigirlar turlicha sut mahsuldorlikni namoyish etishi, olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

II. Tanlangan mavzu bo'yicha muammolarning qo'yilishi va qo'llaniladigan uslubiyatlar

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi institutning o'quv bo'limi, markaziy uslubiy kengashi, dekanat va tegishli kafedralarda qabul qilingan tartibga binoan, talaba tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi. Shundan so'ng ushbu mavzu tegishli kafedra, ilmiy raxbar va dekanat tomonidan rasmiylashtiriladi.

Amaliyotdan oldin talaba kafedra va ilmiy rahbari tomonidan bitiruv oldi amaliyotini bajarishga oid maxsus topshiriqlarni oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bitiruv malakaviy ishi referativ yoki tajriba asosida bajarilishi mumkin.

Biz tanlagan “ Turli genotipga mansub birinchi to'g'imdagi sigirlarning sut mahsuldorligi ” mavzusi referativ tarzda bajarish rejalashtirilganligi sababli, ilmiy rahbar va kafedra tomonidan quyidagi topshiriqlarni oldik. Ya'ni, amaliyot va bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida e'tibor berish lozim bo'lgan masalalar quyidagilar:

- bitiruv malakaviy ish mavzusi va unga tayinlangan ilmiy rahbarning dekanat va rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtirilganligini aniqlash;

- chorvachilik va uning asosiy tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlantirishga oid Davlat qonunlari, Respublika Prezidentining qaror va farmonlari, Davlat dasturlari hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tanishish va to'liq taxlil qilib o'zlashtirib olish;

- sut ishlab chiqarishni dunyo, MDH va Respublikamizdagi xolati va uning rivojlanish istiqbollari bilan tanishish. Bu borada bajarilgan ilmiy - tadqiqotlar ishlarini taxlil qilish va mavjud bo'lgan ilmiy, uslubiy, xuquqiy va statistik ma'lumotlar bilan umumlashtirish maqsadida Samarqand qishloq xo'jalik, O'zbekiston chorvachilik va O'zbekiston qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi institutlarining hamda Toshkent Agrar Universitetining chorvachilik borasidagi

ilmiy to'plamlari, "Zootexniya", "Molochnoye i myasnoye skotovodstvo", "Agrarnaya nauka", "Biologiya selkoxozyaystvennykh jivotnykh", "O'zbekiston qishloq xo'jaligi", "Zooveterinariya", "Agro ilm" va boshqa jurnallarning oxirgi 10-15 yillardagi mavzuga oid ilmiy – uslubiy manbalari bilan tanishish va taxlil qilish;

- mavzuga oid masalalarni yoritishda mavjud bo'lgan ilmiy, uslubiy, xuquqiy, o'quv va statistik manbalarni o'rganib, ulardagi ma'lumotlarni mavzuda ko'rsatilgan zot ko'rsatkichlari bilan solishtirish;

- sigirlarning birinchi to'g'imidagi sut mahsuldorligi ma'lum ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtda ularning sut mahsuldorligini baholash orqali kelajakdagi mahsuldorligi bo'yicha xulosa qilish mumkin. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkich bo'yicha to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish;

- chorva mollari, shu jumladan qoramollarning sut mahsuldorligi xamda boshqa xo'jalik foydali belgilari to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish;

- qoramollarning sut va go'sht mahsuldorligi bo'yicha baholanganda e'tibor berilishi lozim bo'lgan: zoti, zotdorligi, yoshi, jinsi, tirik vazni, semizlik darajasi, 1 kg sut uchun va 1 kg qo'shimcha tirik vazn uchun sarflagan ozuqa miqdori, boshqacha qilib aytganda iste'mol qilgan ozuqasini maxsulot birligi bilan qoplash xususiyati, sutning sifati ya'ni uning tarkibidagi yog' va oqsil ko'rsatkich, sutdorlik koeffisiyenti, teri og'irligi va uning sifati kabi ko'rsatkichlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;

- sut ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorligini hisoblashni o'ziga xos tomonlarini bilish;

- olingan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Olingan ma'lumotlarni taxlil qilib, ilmiy – uslubiy manbalar bilan umumlashtirib, soxani iqtisodiy samaradorligini oshirishda zooveterinariya tadbirlar rejasini tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini bilish.

III. Asosiy qism

III.1. Qora-ola zoti va uni chatishma avlodlarining sut mahsuldorligi

Rossiya qora-ola zoti

1959 yilga kelib Rossiya mamlakatida qora-ola zotli qoramollarning o'rta rus, sibir, ural tiplari yuzaga kelgan. Ularni bir-birlaridan kam farq qilganliklari uchun birlashtirilib mustaqil qora - ola zot deb tasdiqlangan. Rossiya qora-ola zotining shakllanishi beshta davrni o'z ichiga oladi.

Sobiq MDH ning turli davlatlarida urchitilayotgan zotga mansub qoramollarni maxsuldorligida sezilarli darajada farq bo'lsada, yo'nalishida, tusi, ekstereri va kelib chiqishi bo'yicha ular umumiylikka egadir.

Qora - ola zotining O'zbekiston xili.

O'zbekiston mintaqasiga qoramollarning qora - ola zoti 1882-1885 yillardan boshlab olib kelingan.

Armfeld ma'lumotlariga ko'ra, 1882 yili Toshkent qishloq xo'jaligi maktabiga 1 bosh buqa va 5 bosh tona keltirilgan.

T.F.Tavildarovaning ma'lumotlariga ko'ra, 1885 yil ikkinchi bor 1 bosh buqa va 2 bosh g'o'najin olib kelingan va ular usha davrda kuchib kelgan nemis oilalariga parvarishga berilgan. Ular bu qora-ola zotli mollarni kupaytirib, Avliyoota viloyati xamda Toshkent shaxri atrofida yashovchi rus oilalariga sota boshlagan. Bu mintaqalarda ularni sof holda urchitish va mahalliy qoramollar bilan chatishtirish natijasida Talas vodiysida qora-ola zotli mollarning Avliyoota xili, Toshkent shaxri atrofida Toshkent xili shakllana boshlagan. Yana shunday fikrlar xam borki, Toshkent shaxriga yaqin joylashgan «Qoplonbek» tayanch punkitida mahalliy zebusimon qoramollarni avvalo shvis, sungra simmental va golland zotlari bilan chatishtirish natijasida qora-ola mollar guruxi yaratilgan. Bu yerdagi qora-ola zotli mollar podalari

asosan golland zoti bilan chatishtirish xamda talas vodiysidagi Avliyoota qora-ola mollarini olib kelish xisobidan kengaytirilgan.

Shunday kilib, O'zbekiston sharoiti uchun mos kelgan qora-ola zotli mollarning soni kupaytirilgan xamda keyinchalik Toshkent va Sirdaryo viloyati xo'jaliklari uchun rayonlashtirilgan. Xo'jaliklarda mollarni bokish sharoitlari yaxshilanib, oziklantirish me'yori kutarilib borishi bilan qora-ola zotli mollar O'zbekistonning boshka bir kancha viloyatlariga keng tarkaladi.

O'zbekistonda qora-ola zotli mollarini shakllantirish va ularni takomillashtirish borasidagi naslchilik ishlariga uzok yillar olimlardan T.F.Tavildarova, A.K.Lvovich, E.Yu.Karchevskiy va boshkalar raxbarlik kilib, yaxshi natijalarga erishgan. Professor E.Yu.Karchevskiy O'zbekiston qora-ola zotli mollarning shakllanish va takomillashtirish jarayonlarini kuyidagi davrlarga ajratgan:

- **Birinchi davr (1925-1938)** jamoa va davlat xo'jaliklarini tashkil kilish jarayonlarida xar xil zotdor duragay mollarni O'zbekistonga olib kelish bilan xarakterlanadi. Ayniksa, olib kelingan duragay mollar ichida golland mollari kupchilikni tashkil kilgan. Toshkent artofidagi xo'jaliklarda yaratilgan qoramollar golland zotli mollarning duragaylari bulgan. Ular boshka zotli mollarga nisbatan uz maxsuldorligi bilan ajralib turgan. Jumladan, «Kovunchi» fermasida sigirlarning tirik vazni 350-400 kg va sut sog'imi 3500-4000 kg tashkil kilgan.

1935 yili «Toshkent atrofii mollari» ustida naslchilik ishlari olib borish maksadida golland mollarinining davlat naslchilik xujaligi tashkil etilgan. 1937 yildan boshlab golland zotining duragaylari Saratov, Volgograd va Novosibirsk viloyatlaridan kuplab olib kelindi va «Toshkent atrofi» xilidagi mollarni chatishtirish davom ettirildi. Gollandlashtirilgan mollar ustida tanlash va saralash ishlari olib borilgan. Duragay mollarning serpushtligiga va uning seryogligiga katta e'tibor berilgan.

- **Ikkinchi davr (1939-1950)** O'zbekistonda golland zotli qoramollarning naslchilik bazasini yaratilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda Toshkent viloyatining Chinoz tumanida «Vrevskiy» «№3» va «№4» naslchilik xo'jaliklari tashkil kilinib, 1939-

1940 yillarda nasldor podalari shakllantirilgan. A.S.Grameniskiy ma'lumotiga ko'ra shu yillari O'zbekistonga 3746 bosh Shved, kizil chul va golland zotli mollar keltirilgan. Shulardan 782 bosh golland zotli mollar Vrevskiy nomli xo'jaliklariga joylashtirilgan.

1942 yili Sirdaryo viloyatidagi «Malik» tajriba xujaligining podasi shakllantirilgan.

1940-1949 yillar davomida golland zotlaridan foydalanish ikki yunalishda olib borilgan. Ular sof holda urchitilgan xamda mahaliy mollar bilan chatirishtirilgan.

- **Uchinchi davr (1950-1957)** Rossiya va boltik bo'yidan O'zbekistonga kuplab qora-ola zotlar olib kelingan va shu asosida naslli podalar yaratilgan. Jumladan, Estoniya, Latviya, Rossiyadan 1956 yildan 1767 bosh qora-ola zotli mollar olib kelinib, Toshkent viloyati xo'jaliklariga tarqatilgan.

Birgina «Vrevskiy №3» reproduktor xujaligi 1950-1956 yillar mobaynida 2286 bosh nasldor urgochi mollarni yetkazib bergan.

- **Turtinchi davr (1957-1964)** Toshkent naslchilik stansiyasi tashkil etilgan va viloyat xo'jaliklari buyicha naslchilik ishlari olib borilgan. Toshkent naslchilik stansiyasi Estoniya va Gollandiyadan olib kelingan xamda «Chinoz» naslchilik xujaligida yetishtirilgan bo'qalar xisobidan tuldirilgan.

- **Beshinchi davr (1965-1990)** O'zbekistonning barcha viloyatlari xo'jaliklarida qora-ola zotli mollarni keng miqyosda urchitish, ularning maxsuldorlik va nasldorlik ko'rsatgichlarini yaxshilash bilan xarakterlanadi. 1972-1975 yillari qoramolchiligi rivojlangan davlatlardan yukori nasldorli mollar olib kelingan. Jumladan, Germaniyadan 639 bosh va Polshadan 517 bosh jami, 1156 tana gunajin keltirilgan. Shular asosida Namangan viloyatida «Kizil Ravot» xujaligida qora-ola zotining reproduktor xo'jaligi yaratilgan va Toshkent viloyatidagi «Besh yillik», «Politotdel», «Kizil shalola», «Volkovo» xamda Sverdlov nomli xujaligi podalari tuldirilgan. Shu davr ichida O'zbekistonda urchitilayotgan qora-ola zotli mollarning soni 90 ming boshdan 450 ming boshga yetkazilgan. Sof zotli mollar negizi 50 % ga kupaygan. Zot andozasi

talabiga javob beradigan mollar salmogi 77 % ni va shu jumladan, sigirlar 75 % ni tashkil etgan.

Qora-ola zotli mollarning O'zbekiston xili uzining tana tuzilishi va maxsuldorlik xususiyatlari bilan qora-ola zotli mollarga xosdir. Mollar yirik va sersut tana tuzilishi xilida. Mollarning usish va ulgayish xarakteri xam yukori me'yorda utadi. Buzoklarining tugilgandagi tirik vazni 28-32 kg, 6 oyligida 135-150 kg, 12 oyligida 220-250 kg va 18 oyligida 300-330 kg. Sigirlarning o'rtacha tirik vazni 450-500 kg, ayrimlari 700 kg gacha yetadi. O'zbekiston davlat naslchilik kitobiga yozilgan sof qora-ola zotli sigirlarning sut sog'imi 4773 kg va 3,67 %. Naslchilik zavodlarida rekordchi sigirlar xam yetishib chikkan. «Chinoz» naslchilik zavodida parvarishlangan «Chyolka 860» lakabli sigir birinchi to'g'ishida 10518 kg sut bergan. Yog'lilik darajasi 3,8 % ni tashkil qilgan.

1970-1975 yillardan boshlab qora-ola zotli mollarni golshtin zoti bilan chatishtirish amalga oshirila boshlangan.

Xulosa kilib aytganda, qora-ola zotli mollar O'rta Osiyo mintaqasidagi mahalliy qoramollarni yaxshilashda xamda maxsuldor mollar podalarini yaratishdi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Avliyoota va bushuyev zotlari xam qora-ola zotli mollar ishtirokida yaratilgan.

Hozir qora-ola zoti mamlakatimizda , son jihatdan birinchi o'rinni egallaydi. Respublikamizda yetishtirilayotgan sutning salmoqli qismi qora-ola zotli sigirlardan olinmoqda. O'zbekiston uchun sut yo'nalishidagi qoramollar ichida eng istiqbollisi hisoblanadi. Bu zotni yaxshi biladigan olimlar akademik Sh.A.Akmalxonov, professorlar M.I.Ashirov, E.Yu.Karchevskiylar hisoblanadi.

Qora-ola zotini takomillashtirish yo'lida mamlakatimiz va xorij davlatlarining ko'pgina olimlari ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Nosirov T. U. (2010) o'z tajribalarida qora-ola zot sigirlarni Keno, Jeffa, Amadin, Arelano va Tabsida laqabli golshtin zotga mansub buqalar bilan chatishtirib, olingan birinchi bo'g'in avlodlarning ko'rsatkichlarini o'rgangan.

Tajribaga buyurtma juftlash uchun qora-ola zot sigirlardan yoshi (3 to'g'im va katta), tirik vazni, sut sog'imi, sutini tarkibidagi yog'i, sutdorlik koeffitsiyenti bo'yicha tanlab olingan.

1-jadval.

Qora-ola zotga mansub sigirlarning mahsuldorlik ko'rsatkichlari

Guruh lar	Mahsuldorlik ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)				
	N	Tirik vazn, kg	Sog'im, kg	Sut yog'i, kg	Sutdorlik koeffitsiyenti,kg
I	12	442,8 $\pm$ 5,63	3078,8 $\pm$ 64,6	117,9 $\pm$ 2,83	695,1 $\pm$ 6,27
II	10	436,5 $\pm$ 10,65	3072,0 $\pm$ 82,02	119,8 $\pm$ 3.20	704,0 $\pm$ 2,59
III	12	438,5 $\pm$ 7,40	3065,8 $\pm$ 51,18	119,6 $\pm$ 2,69	699,0 $\pm$ 0,89
IV	12	441,3 $\pm$ 6,56	3088,5 $\pm$ 49,22	120,5 $\pm$ 1,89	700,0 $\pm$ 1,14
V	11	435,5 $\pm$ 3,01	3054,4 $\pm$ 29,40	116,1 $\pm$ 1,11	701,0 $\pm$ 0,62

Sigirlar mahsuldorligi bo'yicha O'zbekiston qora-ola zot standarti talabiga javob bergan. Ular golshtin zot buqalari bilan chatishtirish uchun mahsuldorligi bo'yicha buyurtma juftlashga mos kelgan.

2-jadval

Avldolarining sifati bo'yicha buqalarni bahosi

Buqalar ning	Qizlarining ustunligi (DW)			Irsitining nisbiy bahosi, %		
	Sog'imi bo'yicha,	Sutini yog'i	Sutini oqsili	Irsiy bahosi	Suti bo'yicha	Ekstereri bo'yicha

qizlari	kg	bo'yicha , kg	bo'yicha, kg	bo'yicha (RZG)	(RZM)	(RZE)
Keno	+2570	+68	+57	133	130	131
Jeff	+1020	+54	+36	125	120	124
Amadin	+1292	+65	+40	129	122	116
Arelano	+1726	+35	+44	-	118	-

Germaniyada ushbu ko'rsatkichlari bo'yicha Keno, Amadin va Jeff buqalari yuqori baholangan. Arelano va Tabsil buqalari esa Germaniya va O'zbekistonda ilk marotaba tekshiruvda sinalgan.

Chatishtirishdan olingan tonalarni o'stirishda oziqlantirish ishlariga alohida e'tibor berilgan va ular genetik imkoniyatlarini ruyobga chiqargan. Tonalar 500-550 gramm, g'o'nojinlar esa 800-900 gramm kunlik o'sishdan kelib chiqqan holda oziqlantirilgan. Mollarning tirik vazni va semizlik kondisiyasi normal ravishda ortib borgan, g'o'nojinlar to'g'ishga va iyyirishga yaxshi tayyorlangan. Tonalar va g'o'noinlarning tirik vazni qora-ola zot standartidan sezilarli darajada ustunlikka erishgan.

Tona va g'o'nojinlar 1 kg o'sishi uchun 130-140 MDj almashinuvchi energiya, 14,9-16,7 kg quruq modda, 1763-1992 gramm hazmlanuvchi protein va 10,2-11,5 kg ozuqa birligi sarflagan.

3 – jadval

**Tona, g'o'nojin va birinchi to'g'imdagi sigirlarning tirik vaznini o'zgarishi,
kg**

Guruhlar	Yoshi va ko'rsatkichlar ($\bar{X} \pm S_x$)			
	Birinchi urug'lantirishdagi tonalar	6 oylik bo'g'ozlikda	6 oylik bo'g'ozlikda	Birinchi to'g'imda

I	327,2±4,53	400,0±6,34	473,8±6,58	426,7±7,17
II	327,3±10,78	402,9±11,59	484,0±11,97	430,5±12,02
III	327,9±1,40	406,1±6,20	487,3±1,55	435,9±8,16
IV	338,8±5,60	421,5±7,34	503,8±8,11	450,8±7,71
V	322,7±4,54	400,5±4,72	482,7±5,81	430,0±6,14

Ma'lumki, to'g'ishga yaxshi tayyorlangan g'o'nojinlar, to'la qiymatli oziqlantirish va birinchi to'g'imdagi zootexnikaviy asosda iydishni tashkil etish, podani takror ishlab chiqarishga hamda sut sog'imini oshib borishiga ijobiy ta'sir etadi.

Tajribalarda birinchi to'g'imdagi sigirlarning tirik vazni, laktasiyasining davri va kunlik sog'im miqdorlarini hisobga olgan holda balanslashtirilgan rasionlar asosida oziqlantirilgan.

4- jadval

Birinchi to'g'imdagi sigirlarga oziqa sarfi, kg

Oziqalarning to'yimligi	Tajriba guruhleri (buqalarni qizlari)				
	I (Keno)	II (Jeff)	III (Amadin)	IV (Arelano)	V (Tabsila)
Beda pichani	1060	1043	1046	1026	1027
Senaj	895	985	883	907	1157
Somon	141	156	147	161	203
Makkajo'xori silosi	4955	5288	4981	5100	6138
Yo'ng'ichqa	6710	6121	6689	6489	4663
Konsentratlar	1433	1439	1429	1430	1431
Oziqalarning to'yimligi					
Quruq modda	5415	5459	5395	5386	5373

Oziqa birligi	4205	4198	4193	4184	4161
Almashinuvchi energiya , MDj	51305	51465	51427	51315	51081
Hazmlanuvchi protein	717	704	713	708	669

Rasionda 1 kg oziqa birligiga 9,4-9,5 MDj almashinuvchi energiya, 132 gramm hazmlanuvchi protein to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkichlar iyyirish davrida ancha yuqori ko'rsatkichda bo'lgan (9,7-9,8 MDj va 130-145 gramm).

Birinchi to'g'imdagi sigirlarning rasioni shirali-konsentrat tipida mos ravishda (59,4-59,9; 27,3-27,5 %), dag'al oziqalar% ni tashkil etgan. Oziqlantirish tipi va sharoitining yuqoriligi oziqani sut bilan qoplash imkoniyatini yaratgan.

Buqalarning qizlarini sut mahsuldorligi o'rganilganda qo'yidagi ko'rsatkichlar olingan.

5 – jadval

Birinchi to'g'imdagi sigirlarning sut mahsuldorligi (305 kun)

Guruhlar	Mahsuldorlik ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)			
	Sog'im , kg	Sutining yog'ligi, %	Sut yog'i chiqimi, kg	Sutdorlik koyeffisiyenti
I	4540.9 $\pm$ 121.49	3,86 $\pm$ 0.048	175.53 $\pm$ 5.68	1064.2 $\pm$ 34.63
II	4398.9 $\pm$ 430.85	3,99 $\pm$ 0.070	175.18 $\pm$ 14.64	1021.6 $\pm$ 97.21
III	3952.0 $\pm$ 255.70	4,55 $\pm$ 0.160	178.11 $\pm$ 10.98	906.8 $\pm$ 61.92
IV	3891.3 $\pm$ 332.55	4,02 $\pm$ 0.050	157.41 $\pm$ 14.33	863.2 $\pm$ 80.03
V	3578.5 $\pm$ 119.83	3,83 $\pm$ 0.040	137.1 $\pm$ 4.27	832.2 $\pm$ 36.21

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, birinchi va ikkinchi guruhdagi sigirlar sut mahsulotini ko'p namoyish etgan. Uchinchi guruhdagi sigirlarning

sutini yog'liligi yuqori ko'rsatkichda bo'lgan. To'rtinchi va beshinchi guruhdagi sigilarning ko'rsatkichlari ancha past bo'lganligi kuzatilgan. Jeff va Keno laqabli buqalarning qizlari sut sog'imi bo'yicha ustunlik qilgan bo'lsa, sutining yog'i bo'yicha Amadin va Arelano laqabli bo'qa qizlari ustunlik qilgan.

Laktasiyasining xarakteri bo'yicha barcha guruhdagi sigirlarda turg'unlik koeffisiyenti bir xillikda 94,5-95,0 kechganligi kuzatilgan.

Sutdor qoramolchilikda sigirlarni mashina sog'imiga yaroqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jeff va Keno laqabli buqalarning qizlarini yelin ko'rsatkichlari yuqori ball bilan baholangan bo'lib, vannasimon shakldagi yelinlar 705 ni, kosasimon shakldagi lar esa 83,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek sut berish tezligi bo'yicha ham ushbu buqalarning qizlari ustunlik (2,09-2,10 kg/min) qilgan.

Qizlarining sut mahsuldorligini onalarining mahsuldorligi bilan taqqoslab o'rganish amaliyotda keng qo'llaniladi va uni aniqlik darajasi ancha yuqoridir. Sababi bunday baholashda qizlarining otasi va onasi ham ishtirok etadi.

6-jadval

Birinchi to'g'imdagi sigirlarning mahsuldorligini onasini mahsuldorligi bilan taqqoslash ($X \pm S_x$)

guruhlar	n	Sog'im , kg		Sutini yog'i, %		Farq , $\pm$	
		Onasi	Qizlari	Onasi	Qizlari	Sog'im, kg	Sut yog'i, %
I	12	2425.5 $\pm$ 53.43	4540.9 $\pm$ 121.49	3.92 $\pm$ 0.02	3.86 $\pm$ 0.05	+2115.4	-0.06
II	10	2415.6 $\pm$ 63.12	4398.9 $\pm$ 431.85	3.98 $\pm$ 0.02	3.99 $\pm$ 0.07	+1981.3	+0.01
III	10	2393.6 $\pm$ 31.49	3952.0 $\pm$ 255.4	4.04 $\pm$ 0.02	4.55 $\pm$ 0.16	+1558.4	+0.51
IV	12	2404.3 $\pm$ 30.95	3891.3 $\pm$ 332.55	4.01 $\pm$ 0.02	4.02 $\pm$ 0.05	+1487.0	+0.01
V	11	2375.2 $\pm$ 17.16	3578.5 $\pm$ 119.83	3.92 $\pm$ 0.02	3.83 $\pm$ 0.04	+1203.3	-0.09

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Keno va Jeff laqabli buqalarning qizlarini mahsuldorligi onalarinikidan ancha farq qilgan. Undan keyingi o'rinlarda Amadin va Arleano ning qizlari band etmoqda. Sutining yog'lilik darajasi bo'yicha Amadin ni qizlari ustunlik qilgan.

Buqalarning qizlarining sut mahsuldorlik ko'rsatkichlarini qora-ola zot standarti bilan solishtirib o'rganilganda, birinchi to'g'imdagi sigirlarning sut mahsuldorligi standart ko'rsatkichidan sutini miqdori bo'yicha (2500 kg), 1078,5-2040,9 kg yoki 43,1-81,6 %, sutini yog'i bo'yicha (92 kg) esa 45,1-87,8 kg yoki 49,1-95,4 % ga ustunlik qilgan.

Qora-ola zot sigirlarni buyurtma usulda golshtin zoti bilan chatishtirish ulardan olingan avlodlarning nasl va mahsuldorlik xususiyatlariga ijobiy ta'sir qilgan.

Tajribalarda buqalarning qizlarini mahsuldorligini tengdoshlarini mahsuldorliklari bilan solishtirganda qo'yidagi natijalar olingan.

7 - jadval

Buqalarni qizlarini sut mahsuldorligi bo'yicha taqqoslash

Guruhlar	Buqalarning qizlari	Sog'imi bo'yicha farq		Sutini yog'i bo'yicha farq		Sut yog'ini chiqimi bo'yicha farq	
		kg	%	%	%	kg	%
I	Keno	+962,4	126,9	+0,03	100,8	+34,43	128,0
II	Jeff	+820,4	122,9	+0,16	104,2	+38,08	127,0
III	Amadin	+373,5	110,4	+0,72	118,8	+41,01	129,9
IV	Arelando	+312,8	108,7	+0,19	105,0	+20,31	114,8
V	Tabsila	-	100	-	100	-	100

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Keno, Jeff, Amadin va Arelano laqabli buqalarning qizlari Tabsila laqabli buqani qizlaridan sutini miqdori bo'yicha 312,8-962,4 kg (108,7-126,9), sutini tarkibidagi yog'i bo'yicha 20,31-41,01 kg (114,8-129,9 %) ustun kelgan. Keno va Jeff laqabli buqalarning qizlarini sut miqdori barchadan ustun bo'lgan, sutini tarkibidagi yog' miqdori bo'yicha esa Amadin va Arelano buqalarining qizlari, sut yog'ini chiqimi bo'yicha Amadin, Keno va Jeff laqabli buqalarni qizlari ustun kelgan.

8-jadval

Birinchi to'g'imdagi "Eng yaxshi" qizlarini sut mahsuldorligi bo'yicha buqalarni seleksion samaradorligi ($X \pm S_X$)

pokazateli	Seleksion belgilar	Naslli bo'qa - guruhlar				
		I (Keno)	II (Jeff)	III (Amadin)	IV (Arelano)	V (Tabsil)
Sog'im, kg	$D \pm M_d$	2297.4 $\pm$ 139.4	2632.1 $\pm$ 443.4	2032.1 $\pm$ 135.5	2029.0 $\pm$ 363.5	1407.8 $\pm$ 91.6
	h^2	0.196	0.184	0.220	0.160	0.198
Sutidagi yog' %	$D \pm M_d$	0.02 $\pm$ 0.05	0.04 $\pm$ 0.07	0.45 $\pm$ 0.20	0.07 $\pm$ 0.05	0.05 $\pm$ 0.04
	h^2	0.760	0.740	0.780	0.816	0.572
Sut yog'ini chiqimi, kg	$D \pm M_d$	89.01 $\pm$ 5.86	101.7 $\pm$ 13.76	100.6 $\pm$ 8.84	84.8 $\pm$ 17.21	51.34 $\pm$ 2.73
	h^2	0.450	0.393	0.378	0.416	0.396
Seleksion samaradorlik	Po udoyu, kg	+450.3	+484.3	+447.1	+232.8	+278.1
	Sutidagi yog' bo'yicha, %	-0.015	-0.030	+0.35	+0.059	-0.056
	Sut yog'ini chiqimi bo'yicha, kg	+40.0	+40.0	+38.0	+35.3	+20.3

Shunday qilib, qora-ola zotini golshtin zotga mansub buqalar bilan chatishtirish ularning avlodlarida sut mahsuldorligini oshiradi va nasldorlik xususiyatlarini yaxshilaydi.

III.2. Qizil cho'l zoti va uni chatishma avlodlarining sut mahsuldorligi

Qizil cho'l zoti. O'zbekistonda urchitish uchun rejali zot hisoblanadi.

Qizil cho'l zotining vatani Ukrainaning cho'l mintaqasi Zaporozhye viloyatining Tokmak, Chernigov tumanlari hisoblanadi. Bu tumanlar "Molochnaya" daryosining qirg'oqlarida joylashgan bo'lib, quruq kontinental iqlimi bilan xarakterlanadi. Bu zotni shakllanishi XVIII asrni oxiri va XIX asrning boshlariga to'g'ri kelib, qariyb 200 yillik tarixga ega. Zotning yaratilishi borasida yagona fikr mavjud emas. Bir guruh olimlar bu zotni yaratilishida asosiy rolni chet mamlakatlarning zotlari o'ynagan deyishsa, ikkinchi guruh olimlar-mahalliy mollar o'ynagan deyishadi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Ukrainaga, Rossiyaning markaziy qismiga va XIX asrning boshlarida Germaniyadan nemislar ko'chib kelishgan, ular o'zlari bilan qizil **ostrfrislyand** zotli mollarni keltirishgan, bu mollar mahalliy sharoitga moslasha olmaganliklari tufayli, Ukrainaning **mahalliy qizil va ko'k mollari** bilan chatishtirilgan. Bunday chatishtirishdan olingan duragaylar "**o'z ichida**" urchitilgan va ular mahalliy sharoitga yaxshi moslashgan, 1860 yillarga kelib, Ukrainaning cho'l mintaqasida qizil mollar guruhi yuzaga kelgan va ular nemis yoki **kolonist** mollari deb yuritila boshlangan. XIX asrning ikkinchi yarmida bu mollarni mahsuldorligini oshirish maqsadida ko'p xo'jaliklarda **angeln, vilstermarsh, ostrfrislyand, shortgori va boshqa zotlarning buqalari** bilan chatishtirilgan. Shunday qilib, qizil cho'l zoti, murakkab ishlab chiqarish chatishtirish natijasida mahalliy va Ukraina ko'k mollarini chet el zotlari bilan chatishtirish natijasida yaratilgan.

O'zbekistonda qizil cho'l zotli qoramollar dastlab, 1928-1932 yillarda keltirilgan. S.G. Davidov O'zbekistondagi jaydari mollarni yaxshilash uchun bu zot mollardan keng foydalanishni tavsiya etgan.

Qizil cho'l zotining eksterer tuzilishi quyidagicha xarakterlanadi: o'rtacha balandlikda (sigirlarni yag'rin balandligi 126-130 sm); tanasi uzun (152-156 sm); ko'kragi chuqur (66-68), o'rtacha kenglikda (37-42 sm); boshi kichik, yengil, orqasi va beli keng va uzun; dung'azasi ko'tarilgan; suyagi yengil (kaft aylanasi 17-19 sm); yelini yaxshi rivojlangan, dumaloq shaklda; terisi yupqa, cho'ziluvchan. Yomon oziqa sharoitida boqilsa orqasi tor, tomsimon bo'lib, oyoqlari noto'g'ri qo'yiladigan bo'ladi.

Erkak buzoqlari tug'ilganda 29-40 kg, urg'ochilari 24-35 kg tosh bosadi; 6 oyligida mos ravishda 160-195 va 140-185 kg; 12 oyligida 275-295 kg; 18 oyligida 380-420 va 300-350 kg keladi. Sigirlari 460-520 kg, buqalari 800-900 kg, ayrimlari 1280 kg tosh bosadi.

Bu zot sigirlarning sut mahsuldorligi turli mintaqalarda turlicha xarakterlanadi. Zot bo'yicha sut mahsuldorligi o'rtacha 3000-3500 kg ni tashkil qiladi, sutini yog'liligi o'rtacha 3,6-3,8 %, oqsil miqdori 3,20-3,58 %, ayrimlarining sutini tarkibidagi yog' miqdori 5,2 % bo'ladi. Yelin indeksi 42-43 ga tang. Sigirlarining iydish xususiyati yaxshi.

Qizil cho'l zot qoramollarning go'shtdorlik sifati o'rtacha. Buqachalari jadal o'stirilganda kuniga 850-950 g o'sadi, so'yim chiqimi 55-56 %, bo'rdoqilangan ho'kizlari 60 % so'yim chiqimi beradi.

Bu zot bilan naslchilik ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi rejada tutilgan: 1) Sigirlarni yelinini kattalashtirish, turli xil kasalliklarga chidamliligini oshirish, sanoat komplekslari talabiga moslashuvini oshirish va ekstererini yaxshilash (shu maqsadda ularni angeln va daniya qizil zotlarini buqalari bilan chatishtirish); 2) mustahkam konstitusiyali sigirlar tipini yaratish (tirik vazni 550-570 kg yaxshi va tez iyadigan, yuqori so'yim chiqimiga ega bo'lgan); 3) Sut mahsuldorligini 6000 kg, sutining yog'liligi 3,95 %, oqsili 3,6 % yetkazish.

O'zbekistonda qizil cho'l zotini takomillashtirish maqsadida ularni qizil-ola golshtin, angler, Daniya qizil zotlari bilan chatishtirish yaxshi natija berishi

qishloq xo'jalik fanlari doktori B.Obdolniyozov, B.A.Jumaniyozov, professor P.S.Sobirov va M.I.Ashirovlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

V.A.Trofimovskiy (1951) ma'lumotiga ko'ra qizil cho'l zotli mollar Turkmaniston va O'zbekiston quruq cho'l sharoitida o'z mahsuldorligini kamaytirmagan va yoz oylari havoning issiq haroratiga bardosh bergan. Lekin qon parazitlarini chaqiruvchi kasalligiga qarshi profilaktik ishlarini doimo o'tkazib turishlik talab qilinar edi.

Sigirlar quyidagi eksteryer va tana tuzilishi bilan xarakterlanadi. Bo'yni o'rtacha balandlikda (yag'rin balandligi 126-130 sm), kallasi yengil, o'rtacha kattalikda, ko'kragi chuqur (66-68 sm) va keng (37-42 sm), yelkasi, beli va ket qismi keng va uzun, dug'oza qismi biroz ko'tarilgan, suyagi yengil, yelini yaxshi rivojlangan kosasimon shaklda. Yangi tug'ilgan buzoqlarining tirik vazni 30-35 kg. Go'sht mahsuldorligi bo'yicha-qoniqarli darajada. Novvvoslar jadallashtirilgan texnologiya usulida parvarish qilinganda 850-950 grammdan vazn qo'shadilar. So'yim chiqimi 54-55 % ga to'g'ri keladi.

Har xil mintaqalarda zotni takomillashtirish natijasida buqalarning bir qancha tizimlari va qarindosh urug'lari yaratilgan. Shular jumlasiga Premyer 357-N, Bens-Udaloy 463-N, Molodes 137-N, Argus 31- N, Bars 173-N va boshqalar kiradi. Ribak ZAN-39, Andaluz OMN-324, Kazbek ZAN-60 va bir qancha buqalarning avlodlari o'ta maxsuldor bo'lgan. (Ye.A.Arzumanyan va boshqalar 1978.)

S.G.Davidov kuzatuvlarga asoslanib, qizil cho'l zotini O'zbekistonda keng miqiyosda urchitishni 1929 yildayoq tavsiya etgan.

Mahalliy zebusimon molni yaxshilash maqsadida bu zotli mollar O'zbekistonga 1936 - 1937 yillardan rejali ravishda keltirila boshlangan. Shu yillari Qoraqolpog'iston va Xorazm viloyatiga 800 boshdan ziyod buqa keltirilgan. 1939-1940 yillarda ikkita – Samarqand-1 va Oqdaryo-2 naslchilik xo'jaliklari tashkil qilingan. Ular qizil cho'l zotiga mansub mollar bilan to'ldirilgan. 1939 yili

Ukrainadagi qizil cho'l zotini urchitadigan xo'jaliklardan 450 bosh tana va g'unajin, 100 bosh sigir va 9 bosh buqa keltirilgan. Ularning hammasi Samarqandda tashkil etilgan naslchilik xo'jaliklariga berilgan.

N.O.Mavlonov ma'lumotlariga ko'ra, keltirilgan tanalardan har birining tirik vazni 12 oyligida 204 kg dan 343 kg gacha (o'rtacha 232,5 kg), 24 oyligida 275 kg dan 450 kg gacha (o'rtacha 319,4 kg) bo'lgan, 1941 yili "Samarqand-1" va "Oqdaryo-2" xo'jaliklarida birinchi marta tuqqan 236 bosh sigirning har biridan sog'ish davrida 2509 kg sut, ikkin marta tuqqanlarining 20 boshidan 3161 kg va voyaga yetgan 91 bosh sigirdan yog'i 3,4 – 3,5 % li 3700 kg sut olingan. Pastdarg'om tumanida qizil cho'l zotini takomillashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi naslchilik xo'jaligi tuzilgan 1962 yildan shu xo'jalik podasida Samarqand Davlat naslchilik stansiyasining buqalari, Molochan (Ukraina) Davlat naslchilik xo'jaligidan keltirilgan "Miraj-017", "Klever-53", "Zond-1185" raqamli buqalar bo'lgan. Xo'jalikda zotni kelgusida (1964-1970 yillarda) yanada takomillashtirish bo'yicha seleksiya-naslchilik ishlari rejasi N.O.Mavlonov, N.I.Biserova, B.O.Abdalniyozevlar tomonidan tuzilgan.

Samarqand viloyatidagi № 8- naslchilik xo'jaligida podani tashkil topish vaqtidan, asosan sof qizil cho'l zotli buqalar Aljir 282, Rezviy 1737, Straus 239, Mayak 843, Zefir 373, Sezar 58, Zond 1641, Sokol 1729 buqalari ishlangan, ulardan ko'p sonli avlodlar olingan. 1962 yildan boshlab Samarqand davlat naslchilik stansiyasining sof zotli qochiruvchi- buqalari Miraj 017, Klever 53, Zond 1185 ishlatilgan, ularning barchasi Ukraina Respublikasi, Zaporozhye viloyatidagi "Molochan" Davlat naslchilik xo'jaligidan keltirilgan. Naslchilik xo'jaligining shu davrdagi podasidagi mollar kelib chiqishi bo'yicha 5 qarindoshlik guruhiga bo'lingan.

Zotni yanada takomillashtirish maqsadida xo'jalikda N.O.Mavlonov, N.I.Bisirovalar seleksiya-naslchilik (1964-1970 yillarga mo'ljallangan) ish rejasini tuzishgan. Mashxur tizim asoschisi Premier-357-N dan kelib chiqqan Zefir-373

qochiruvchi buqaning avlodlari podada eng ko'p tarqalgan. Premyer 357-N tizimidan naslchilik xo'jaligida turli yillarda 15 ta qochiruvchi buqalar, asosan uning taniqli nevarasi Anitas DN-40 laqabli qochiruvchi buqaning avlodi ishlatilgan.

9-jadval

№ 8 – naslchilik xo'jalik podasining qizil cho'l zotiga mansub mollarining qarindoshlik guruhlariga bo'linishi

Qarindoshlik guruh asoschisi laqabi, inventar raqami	Ulardan sigir va g'unajinlar asralmoqda			
	Qizlari	Nevaralari	Evaralari	Jami
Zefir 373	29	71	39	139
Aljir 282	7	17	-	24
Sezar 58	3	20	39	62
Miraj 017	79	-	-	79
Klever 53	50	-	-	50
Jami	168	108	78	354

Samarqand Davlat naslchilik stansiyasining Miraj 017, Klever 53, Nord 3867 laqabli buqalardan bir tomondan, xo'jalikda sersut sigirlar, ikkinchi tomondan bu yerda 7 ta qochiruvchi buqalar o'stirildi. Ular keyinchalik sigirlarni sun'iy qochirishda foydalanilgan. Xo'jalikning podasida sof qizil cho'l zotli mollar 67,8 % ni, shu jumlandan 85,3 % sigirlar sonini tashkil qilgan.

Bonitirovka sinflarga taqsimlanganda eng ko'p sigir, g'unajin va tana – elitaga mansub (561 bosh yoki 62,5%), elita rekordchilar – 11 bosh yoki 1,2 % bo'lgan. Podani tirik vazn bo'yicha tavsifi shuni ko'rsatadiki sigirlarning o'rtacha tirik vazni 494 kg, shu bilan birga birinchi marta tuqqan sigirlar 460 kg, ikkinchi tuqqanlari 493 kg, voyaga yetganlari 528 kg tosh bosganlar.

O'zbekistonda qizil cho'l zotining asosiy naslchilik bazasi Xorazm viloyatida yaratilgan. U yerda 18 ta naslchilik fermasi va naslchilik xo'jaligi mavjud. Maxtumquli nomli xo'jalikning naslchilik fermasida qizil cho'l zot sigirlarining o'rtacha sut sog'imi 3253 kg ga va uning yog'lilik darajasi 3,83 foizga teng.

Xorazm Davlat naslchilik stansiyasida qizil cho'l zotidagi ma'lum geneologik guruhlariga mansub bo'lgan Bens-Udaloy 463-N, Premyer 357-N, Zlodey 459-N va boshqa qochiruvchi – buqalar avlodlari ishlatilgan. Ularning urug'lari sun'iy qochirish punktlari orqali keng miqiyosda ishlatilib, ko'pchilik fermalarda kam mahsuldor buqalar erkin holda qochirishga yuborilgan. Natijada qizil zotli mollar olingan bo'lsada ularning kelib chiqishi va irsiy mahsuldorlik xususiyatlari bo'yicha baholangmagan. Shunday bo'lsada, bu mol viloyatlarda qoramolchilikning rivojlanishida o'zining munosib o'rnini egallagan.

P.S.Sobirov (2009) qizil cho'l qoramol zotini angler zoti bilan chatishtirishdan olingan duragay avlodlarning xo'jalik belgilarini o'rganib, quyidagi xulosalarga kelgan. Tajriba davomida I va II tuqqan F_3 duragay sigirlarning yeksterer ko'rsatkichlari tirik vazni, sut mahsuldorligi va uning ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorligi, tuzilishlar aro o'zaro solishtirilganda II tuqqan sigirlar I tuqqanlariga nisbatan ancha yaxshi natijalarga yega yekanligi aniqlangan.

B.Abdalniyo'zov (2010) qizil cho'l molini angler va Golshtin qizil-ola zotlari bilan chatishtirilgandan olingan sigirlar sutining kimyoviy tarkibini o'rganib quyidagi xulosalarga kelgan. Xorazm sharoitida duragay sigirlarning sutining tarkibidagi oqsil sut shakari, quruq modda, turli xil ko'rsatkichlarga va kimyoviy

tarkibga yega yekanligini aniqlaydi. Yoz oylarida duragay sigirlar sutining tarkibi birmuncha o'zgarganligi aniqlansa, sutining yog'liligi va umumiy oqsilning biroz kamligini aniqlagan.

P.S.Sobirov, A.Q.Qaxorov, Do'stqulov (2003) ma'lumotlariga ko'ra qizil-cho'l zotining mahsuldorlik va texnologik xususiyatlarini yaxshilash borasida ilmiy izlanishlar olib borgan va Respublikada qizil-cho'l zotini yaxshilashning yo'nalishini ko'rsatib, olingan duragay avlodlar kelgusida yuqori mahsuldorli podalarni yaratishga imkon berishini ta'kidlaganlar.

Yu.Ibragimov (2010), sut qoramolchiligida naslchilik ishini tashkil yetish maqsadida respublikamizda bugungi kunda seleksiya naslchilik ishlarini tashkil yetish yeng muhim tadbiriy choralardan biri yekanligini ko'rsatib o'tgan. Sigirlarning mahsuldorlik va texnologik xususiyatlarini tubdan yaxshilash uchun ularni dunyo genofondiga yega bo'lgan zotdor mollar bilan qochirishni va ulardan olingan duragaylar hisobidan yuqori mahsuldorligi podalarni yaratish to'g'risida o'z fikrlarini bayon yetgan.

P. Sobirov (1998) ta'kidlashicha, sigirlarning asosiy mahsuloti ulardan sog'ib olingan sut hisoblanadi. Sut yeng muhim oziqa mahsuloti bo'lib, barcha yosh organizmlarning normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur. Sut mahsulotining miqdori va sifatiga juda ko'p faktorlar ta'sir qiladi. Jumladan sigirlarning yoshi, tirik vazni ularning mahsulotiga katta ta'sir qiladi. Ko'pgina tekshirishlar va tajribalarda sigirlarning sut mahsuloti beshinchi va oltinchi tug'ish yoshigacha oshib borishi aniqlangan. Buning sababi sigirlarning o'sishi va rivojlanishining uzoq davom yetishidir.

Tajribada o'rganilgan sigirlarning sut mahsuloti quyidagicha bo'lgan:

Har xil yoshdagi qizil cho'l zotli sigirlarning sut mahsuldorligi, kg

Sigirlarning yoshi	n	305 kunlik sut kg miqdori	I-klass standarti	Standartdan farqi, ±
I- tug'im	10	2260±51	2900	- 400
II - tug'im	10	2680±66	2700	- 20
III - tug'im	10	2920±98	3100	- 180

Tajribada o'rganilgan sigirlarning 305 kunlik laktasiya davridagi sutni sigirlarning yoshiga qarab 1960 kg dan 3600 kg gacha o'zgarib borishi aniqlangan.

Asosan ko'pchilik sigirlarning sut mahsuloti I - klass standarti talabidan birmuncha pastdir. Buning asosiy sababi sigirlarni oziqlantirish darajasining ancha pastligida deb izohlangan. Ozuqalarning yetishmasligiga va to'la sifatli bo'lmaganligi tufayli sigirlarning mahsuldorlik imkoniyatlari yetarlicha ro'yobga chiqmagan. Shuning uchun birinchi navbatda hayvonlarni normal oziqlantirishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga yega deb ta'kidlangan. Bu o'z navbatida sigirlar sut mahsulotining ko'payishiga olib keladi. Sigirlarning sut mahsuloti ularning yoshi ortishi bilan oshib borishi kuzatilgan. Uchunchi tuqqan sigirlar yeng ko'p sut bergan (2920 kg). Ularning 305 kunlik o'rtacha sut mahsuloti birinchi tuqqan sigirlarga nisbatan 640 kg va ikkinchi tuqqan sigirlarga nisbatan o'rtacha 300 kg ortiq bo'lgan.

Sutdorlik koeffesenti o'rganilgan sigirlarda quyidagicha bo'lganligi aniqlandi:

Har xil yoshdagi qizil cho'l zotli sigirlarning sutdorlik koyeffisiyenti

Sigirlarning yoshi	n	305 kunlik sog'im, kg	Sigirlarning tirik vazni, kg	Sutdorlik koyeffisiyenti
I- tug'im	10	2260±54	378±90	600.0
II -tug'im	10	2680±58	435±88	604.0
III - tug'im	10	2920±59	470±90	617.0

Sigirlarning o'rtacha sutdorlik koyeffesiya yoshning ortishi bilan o'zgarishi aniqlangan. Ya'ni birinchi tuqqan sigirlarda 600 kg, 2 tuqqan 604kg va 3 tuqqanida 617 kg tashkil yetdi.

Umuman bu ko'rsatkich sut yo'nalishidagi zotlar uchun birmuncha past hisoblanadi, ammo bizning respublikamiz sharoitida ko'pgina xo'jaliklarda sutdorlik koyeffesiya o'rtacha 500-600 kg ga tengdir. Buning asosiy sababi oziqa bazasining yetarli yemasligidir deb izoh berganlar.

N.A.Shalimov, T.A.Zelevskayalarning (1998) yozishicha, qizil cho'l zotli qoramollarni ularga qarindosh angler zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki angler zotli sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga, sutida yuqori darajadagi yog' ko'rsatkichiga, yelinining mutanosib rivojlanganligiga, ozuqani yaxshi qoplash xususiyatiga ega.

L.Makarov va V.Popovlarning ma'lumotlariga qaraganda qizil cho'l zotli sigirlarni angler va Daniya qizil zotli buqalar bilan chatishtirishdan olingan 1-bo'g'in angler zotli duragay sigirlarda sut berish tezligi bir daqiqada - 1,37, Daniya qizil zotiga mansub duragaylarda 1,34 va sof qizil zotli sigirlarda 1,31 kg ga to'g'ri kelgan.

M.I.Ashirov va boshqalar (1994) tadqiqotlarida, Buxoro viloyati sharoitida qizil cho'l zotli sigirlarni Daniya qizil zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish,

olingan duragay mollarning mahsuldorligini ko'paytirish bilan birga ularning podani qayta to'ldirish xususiyatini ham yaxshilash imkonini bergan.

Xorazm viloyatlarida 1992 yildan boshlab Golshtin qizil-ola zotli "Spring 214" lakabli buqaning muzlatilgan urug'i keltirilib duragay mollar olingan. Golshtin qizil-ola zotli sigirlaridan birinchi tug'ishda yog'liligi 3,9-4,0 foizli 3350-3400 kg sut (onalariniki 3,75 foiz yog'li 2800 kg), ikkinchi tug'ishda tegishlicha 4,0-4,1 foiz yog'li 3400 - 3500 kg sut (onalariniki 3,82 foiz yog'li 3000-3120 kg), uchinchi marta tuqqanlarida 4,1- 4,2 foiz 3600 - 3750 kg (onalarinikidan 3,9 foiz 3370 kg) sut bergan. Duragaylarining tana tuzilishi yelinining morfofunktsional xususiyatlari yaxshilandi.

R.3.Xudoyorov (2002) ning ma'lumotiga ko'ra, Xorazm viloyatiga 1992 yilda Rossiyadan (Быково kishlog'i) 1200 doza qizil-ola golshtin buqalarini spermasi olib kelingan va qizil cho'l sigirlari sun'iy ravishda urig'lantirilgan. Olingan I-bug'in avlodlarini sutdorlik indeksi 762,5 kilogrammni tashkil qilgan bo'lib, angler bilan olingan I-bug'in avlodlaridan 67,5 kilogramm yoki 11,4 foiz, II-bug'indan esa 192,4 kilogramm yoki 33,7 foiz ko'pdir. Shovot tumani "Mexnatobod" shirkat xo'jaligida qizil-ola golshtin buqasi bilan olingan I-bug'in avlodlarini V-laktasiyagacha sut mahsuldorligi o'rganilgan. 21 bosh duragay sigirlarning sut mahsuldorligi II - laktasiyada 3403,2 kilogramm bo'lgan bo'lsa V-laktasiyada bu ko'rsatkich 4375,4 kilogrammga yetgan, fark 972,2 kilogramm yoki 28,6 foizni tashkil etgan. Sutning yog'liligi barcha laktasiyalarda ancha yuqori bo'lgan va shunga mos ravishda 4,08; 4,13; 4,4,09 foizga tengdir. Ammo yog' ko'rsatkichi bilan sut mahsuldorligi orasida salbiy bog'lanish aniqlangan. O'tkazilgan ilmiy ishlab chiqarish tajribasining ma'lumotlariga asoslanib, shunday xulosa qilish mumkinki anglerga nisbatan xam qora-ola golshtinlar qizil cho'l uchun yaxshilovchi ekan. Qizil-ola golshtin buqalari bilan chatishtirib olingan I-bug'in avlodlari toza zotli qizil cho'lga nisbatan laktasiya davrida 1078 kg yoki 40,6 foiz ko'p sut bergan.

Qrim viloyatida golshtin qizil-ola zotli buqalar urug'idan foydalanib qizil cho'l molini takomillashtirish ishlari o'tkazilgan. Bir xil oziqlantirish va asrash sharoitida duragay sigirlarning birinchi sog'im davrida ustunligi 609 kg ni tashkil qilgan. Lekin sutdagi yog' , oqsil, quruq modda va quruq yog'sizlangan qoldiq miqdori ularda biroz kam bo'lgan. Shunday bo'lsada, sut mahsuloti har bir sog'in davri hisobiga ulardan ko'proq olingan. Duragaylarda yelin shakli ancha yaxshilangan. Duragay avlodining mutloq ko'pchiligida (90- 98 %), qizil cho'l zotli tengqurlarida esa 72- 75 % ining elini vanna va kosasimon shakllarda bo'lgan (V.I.Vlasov, A.N.Togushov, 1991).

1975 yildan boshlab Zoporojye viloyatidagi "Rassvet" tajriba xo'jaligida qizil cho'l zotli sigirlarni qizil -ola va golshtin buqalari bilan qon singdirib chatishtirish usuli bo'yicha tajriba o'tkazgan (P.N.Proxorenko, J.G.Loginov, 1986). Natijada 1- bo'g'in duragaylar sof zotli qizil cho'l sigirlaridan 263- 433 kg sut va 5,6- 12,9 kg sut yog'i ko'p bergan lekin sutining yog'liligi 0,08 % dan 0,11 % ga kamaygan. Bu chatishtirishda qondoshlik ko'payishi bilan sog'im, sut yog'i qo'shilishi qayd qilingan. 2- bo'g'in duragay 1- bo'g'in duragaylariga qaraganda sutni 462 kg, sut yog'ini esa 16,3 kg ko'p bergan.

B.Abdalniyo'zov (2010), Xorazm viloyati xo'jaliklarida 1984 yildan boshlab qizil mollarni yanada takomillashtirish maqsadida angler zotiga mansub 200 bosh g'unoinlar sotib olingan. Shu yildan boshlab esa rejali ravishda angler va Daniya qizil zotlariga mansub qochiruvchi - buqalarning urug'i muzlatilgan holda respublika markaziy sun'iy qochirish korxonasidan keltirilib foydalana boshlandi. Natijada bugungi kunga kelib viloyat xo'jaliklaridagi mollar asosan qizil mollarning (qizil cho'l, latviya qo'ng'iri, estoniya qizili, litva qizil) angler, Daniya qizil va qizil cho'l zotli buqalar bilan qon singdirish usuli bilan zotlar aro chatishtirishdan olingan 1-2 bo'g'in mollardan iboratdir.

Viloyat xo'jaliklarida 1984 yildan boshlab qizil mollarga mansub mollarni angler va Daniya qizil zotlari bilan har xil kombinasiyada chatishtirish natijalari

1995-1996 yillarda 16 ta naslchilik fermalarida o'tkazilgan to'la banitirovka ma'lumotlari asosida taxlil qilindi. Banitirovka Respublika qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan vaqtincha ko'rsatma asosida o'tkazilgan. Voyaga yetgan sigirlar bosh soni barcha genotiplar bo'yicha kamligini hisobga olib hamma zotlar va duragaylar bo'yicha faqat birinchi marta tuqqan sigirlar ko'rsatkichlari e'tiborga olingan. Mollarning hammasi xo'jaliklardagi bir xil vaziyatda saqlandi va oziqlantirildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1- marta tuqqan qizil zotlar orasida sof angler zotli sigirlar mahsuldorlik bo'yicha peshqadamlik qilmoqda, udan so'ng sof litva qizil zotli sigirlar - 2481 kg.

Qora-ola sof zotli sigirlarning sut miqdori angler zoti sigirlaridan 26,8 % va latviya qo'ng'ir zoti sigirlaridan 27,6 % ga ziyoddir. Sutning yog'liligi bo'yicha oldingi o'rinda angler sigirlari 3,99 %.

12-jadval

Xorazm viloyati xo'jaliklarida urchitilayotgan qizil tusli qoramollar sof zotlarining 1- marta tuqqan sigirlarining mahsuldorligi bo'yicha ma'lumotlar, $M \pm m$

Sof zotlar	Sigir soni	1-sog'im davridagi sut miqdori,kg	Sutning yog'liligi, %	Sut yog'ining miqdori, kg	Tirik vazni
Qizil cho'l	43	2310 $\pm$ 51,3	3,75 $\pm$ 0,01	84,2 $\pm$ 0,22	381,3 $\pm$ 29,1
Latviya qo'ng'ir	13	2464 $\pm$ 140,5	3,92 $\pm$ 0,04	97,1 $\pm$ 6,59	369,0 $\pm$ 7,92
Litva qizil	15	2481 $\pm$ 31,8	3,82 $\pm$ 0,05	95,8 $\pm$ 4,19	381,5 $\pm$ 8,8
Angler	10	2669 $\pm$ 92,9	3,99 $\pm$ 0,02	105,3 $\pm$ 3,65	389,4 $\pm$ 14,1

Qora-ola	13	3145± 140,4	3,69 ± 0,03	115,9 ± 5,2	419,3±13,8
----------	----	-------------	-------------	-------------	------------

B.O.Abdalniyozov, U.N. Nosirov (1996) mualliflar 1991- 1994 yillar davomida Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Maxtimquli nomli fermer xo'jaligining naslchilik fermasida qizil cho'l zotining sigirlarini angler buqalari bilan chatishtirishdan olingan duragay (1½ qizil cho'l – 1½ angler) mollarni qizil cho'l sof zotli sigirlar bilan solishtirib o'rganishgan. Tajribadagi sigirlar bir xil oziqlantirish va asrash sharoitida bo'lganlar. Tajriba guruhlarida bo'lgan mollar sutining miqdori, uning yog'liligi va tirik vazni bo'yicha o'rganildi. Qizil cho'l sof zotli sigirlar guruhiga kiritilgan mollar ularning 1- avlod duragaylari xo'jalikning o'zida parvarish qilingan.

Duragay sog'in sigirlarning kundalik rasionining to'yimlilik darajasi yoz faslida 10,94 ozuqa birligiga, 1414,5 gramm hazmlanuvchi proteinga va qish faslida 11,33 ozuqa birligiga va 1397,5 gramm hazmlanuvchi proteinga to'g'ri kelgan. Rasion tarkibida omuxta yem miqdori sog'ib olingan sutning har bir kilogrammiga 180 - 200 grammdan to'g'ri keldi. G'unajinlar tug'ishga yaxshi parvarish qilinib, sigirlar guruhiga o'tkazildi. Sigirlarning rivojlanishi va tirik vaznining o'zgarishini solishtirsak, duragay mollarning sof zotli qizil cho'l sigirlaridan biroz ustunligi ma'lum.

13- jadval

Tajribadagi sigirlarning tirik vazni, kg

Sigirlar guruxi	Sigirlarning tug'ish bo'yicha yoshi								
	I-			II-			III-		
	<i>n</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv</i>	<i>n</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv</i>	<i>n</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv</i>
Sof zotli	21	351,2±4,2	11,5	42	413,3±3,8	5,7	126	448,1±6,0	6,5

qizil cho'l									
1\2 qizil cho'l x1\2 angler	78	389,3±3,3	6,98	25	448,1±6,7	7,5	108	468,3±2,7	5,9

Birinchi va ikkinchi guruhdagi sigirlar tirik vazni oralig'idagi farq I-tug'ishda 37,8 kg (10,8 %), II- tug'ishida 34,8 (8,4 %), III- va undan yuqori tug'ishda 20,2 kg (4,5 %) ga to'g'ri keldi. Tirik vaznining o'zaro farqi aniqlikka yaqin, $R > 0,99$.

Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, eng yaxshi rivojlangan yirik sigirlarning tirik vazni birinchi guruhda I-tug'ishda 423 kg gacha, II- tug'ishida 488, III- va undan ko'p tug'ishda 528 kg gacha, shu ko'rsatkichlar II- gurux sigirlarida tegishlicha 480, 520 va 535 kg gacha yetdi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha ham duragay sigirlarning ustunligi ko'rinib turibdi. Mollar vaznining o'sishini e'tiborga olsak, I- guruhdagi birinchi marta tuqqan sigirlarning tirik vazni katta yoshdagi sigirlar tirik vaznining 78,4 % ni, II- guruxda 83,1 % ga teng bo'lgan.

Sut mahsuldorligi bo'yicha guruxlar oralig'ida bo'lgan farq quyidagi - jadvalda berilgan.

14-jadval

Tajriba guruhidagi sigirlarning sut mahsuldorligi.

Sigirlar guruhi	Sut miqdori, kg			Yog'lilik darajasi, %	
	<i>n</i>	<i>M±m</i>	<i>Cv</i> , %	<i>M±m</i>	<i>Cv</i> , %
	Birinchi marta tuqqan sigirlar				
Sof zotli qizil cho'l	21	2410,9± 75,3	12,78	3,80± 0,004	0,52

1\2 qizil cho'l x 1\2 angler	78	2440,1± 21,9	7,94	3,92± 0,003	0,72
	Ikkinchi marta tuqqan sigirlar				
Sof zotli qizil cho'l	42	2797,6± 42,0	9,76	3,81± 0,03	0,57
1\2 qizil cho'l x 1\2 angler	25	2908,2± 53,3	9,49	3,93± 0,08	0,72
	Uchinchi marta tuqqan sigirlar				
Sof zotli qizil cho'l	126	3254,3± 30,6	10,58	3,83± 0,001	0,16
1\2 qizil cho'l x 1\2 angler	108	3789,9± 41,0	11,09	3,99± 0,016	1,05

Angler zoti bilan duragay sigirlar sutidagi yog' miqdori boshqa guruhdagi sof zotli sigirlarga nisbatan ziyodligi jadvalda ko'rinib turibdi. Sut miqdori bo'yicha angler bilan duragay sigirlar ham sof zotli qizil cho'l molidan ustunlik qilgan.

Sutdorlik koeffitsiyenti 1- guruhdagi sigirlarda 726,2 kg ga, II- gurux sigirlarida 809,3 kg ga teng. Eng yuqori sut mahsuldorlikni qizil cho'l angler zotlarining 1- pog'onadagi sigirlari ko'rsatgan.

B.Abdalniyazov ning (2010) yozishicha, 2006-2007 yillarda Ukrainadan g'unajinlar 5-7 oylik bugozlikda keltirilgan, ammo fermer xujaliklarining aksariyatida normal ozikdantirish sharoiti yaratilmagan. Sutdor mollarda rasionidagi beda pichani, lavlagi, silos yetarlicha bulmagan. Mollar kupincha dagal ut, paxta sheluxasi va shroiti, omuxta yem xisobiga oziklantirilgan. Shunday bulsada, tugishlar normal xolatda o'tgan. 6 ta fermer xujalikda 51 bosh sigirdan 54 buzoq olingan (3 ta sigir 2 ta buzoq berdi), ular qoniqarli o'sib

rivojlangan. Shuni alohida qayd etish kerakki, olingan buzoqlarning ko'pchiligi erkak bo'lib tug'ilgan (54 buzoqdan 39 tasi - 72,2 % buqacha).

Quyida qizil cho'l va golshtin qizil ola zotlarini qochirishdan olingan mollarning birinchi marta tuqqan sigirlarini sut maxsuldorligi keltirilgan.

Jadvalda keltirilganidek, qizil cho'l golshtin qizil ola zotlarining birinchi marta tuqqan sigirlari sog'im davrida 3,91 % yoglilikdagi 4287 kg sut, 167,6 kg sut yog'i bergan. Fermer xujaliklari buyicha eng kup- 4657 kg sutni xar bir sigirdan Shovot tumanidagi "Usta Matsapo" fermer xujaligida sog'ib olingan. Shu davr mobaynida fermer xujaliklarida qizil cho'l zotiga mansub 18 ta sigir birinchi marta tuqqan, ularning sut maxsuldorligi xam xisobga olingan. Sog'im davrida bu mollardan urtacha 2895 kg sut sog'ib olingan, ya'ni keltirilgan golshtin qizil-ola sigirlar xo'jalikda parvarish kilinayotgan qizil cho'l zotli birinchi marta tugilgan sigirlardan kup (1392 kg- 48,1%) sut bergan.

15-jadval

Qizil cho'l va golshtin qizil-ola zotlaridan olingan birinchi marta tuqqan sigirlarning Xorazm viloyati fermer xo'jaliklari sharoitida sut maxsuldorligi

Fermer xo'jaligi nomi	Sigir bosh soni	Sigir ning o'rtacha tirik vazni, kg	1- sog'im davrida sog'ib olingan sut miqdori , kg	Sut miqdori ning tebranishi, kg	Sutni ng o'rta cha yog'l iligi %	Tebrani sh	Sog'im davri- dagi sut yog'i ning miqdori, kg
Usta Matsapo	10	475,5	4657,1	3600-6475	3,8	3,69-3,97	177,0

Avaz Qalandar	10	499.5	3522,6	2250-4280	3,87	3,79-3,96	136,3
Yo'ldosh Majid	10	470,0	4045,3	3836-4190	3,82	3,79-3,87	154,5
Gujum qala	6	483.8	4289.5	3971-4796	4.06	4.03-4,08	174,2
Qahra mon	5	477,5	4567,4	4057-6050	3,78	3,63-3,93	172,2
Asal	10	480,0	4641.0	3948-4734	4,1	4,0-4,19	190,3
Jami	51	481,1	4287.2	2250-6475	3,91	3,63-4,19	167,6

Keltirilgan mollardan sutkalik sog'im 25-30 kilogrammgacha ko'p olingan.

Demak, qizil cho'l zoti O'zbekistonda rejali ravishda urchitiladi. Ularning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari qoniqarli darajada bo'lsada uni yanada yaxshilash uchun qizil-ola golshtin zot buqalarining urug'idan foydalanish lozim.

III.3. Bushuyev zoti va uni ayrim ko'rsatkichlari.

Bushuyev zoti

O'zbekistonning yagona madaniy mahalliy zoti bo'lib, Mirzacho'l hududida yaratilgan. Ular shakllangan manzil Sirdaryo viloyatning Voroshilov va Guliston tumanlari hisoblanadi. Zot yaratilgan Mirzacho'l hududining iqlimi keskin

kontinentalligi bilan xarakterlanadi: yog'ingarchilik kam (bir yilda 240-250 mm yog'in yog'adi), havonning harorati yozda + 45 S gacha, qishda - 33 S gacha tebranadi.

Bushuyev zotini yaratish ishlari 1904-1906 yillarda iste'dodli agronom M.M.Bushuyev tomonidan boshlangan. M.M.Bushuyev uzoq yillar Mirzacho'l tajriba dalasini boshqargan. M.M.Bushuyev o'ziga xos iqlim sharoitiga ega bo'lgan Mirzacho'l hududi uchun mahsuldor, issiqlikka chidamli, qon parazit kasalliklariga bardoshli qoramol zotini yetishtirishni maqsad qilib qo'ygan. 1910-1912 yillarga kelib Mirzacho'l xo'jaliklarida mahsuldorligi ancha yuqori bo'lgan qoramollar guruhi yuzaga kelgan. Mahalliy halq bu mollarni "bushuyev mollari" deb atay boshlagan.

Bu zotning yaratilishi va rivojlanishi yarim asrdan ko'proq tarixga ega. U rejasiz, lekin ma'lum maqsadni nazarda to'tgan holda, **mahalliy zebusimon qoramollarni Gollandiya, Shvis va simmental zotlari** bilan murakkab ishlab chiqarish tipida chatishtirish natijasida yaratilgan. Olingan duragaylar tanlanib "o'z ichida" urchitilgan. Yosh qoramollarni yaxshi oziqa sharoitida o'stirishga alohida e'tibor berilgan.

M.M.Bushuyev vafotidan so'ng bu mollar bilan yaqindan shug'ullanadigan odam bo'lmagan, bu guruhga mansub mollar turli xildagi zot buqalar bilan mahalliy aholi tomonidan tartibsiz tarzda chatishtirila boshlangan. Natijada bu mollar yo'qolib ketish arafasiga kelgan.

1953 yildan boshlab, O'zbekiston qishloq xo'jalik vazirligining tashabbusi bilan bu mollarni saqlab qolish masalasida shoshilinch choralar ko'rilgan. Bu ishning metodik rahbarligi A.A.Atbashyan boshliq O'zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot instituti jamoasiga yuklatilgan. Uzoq yillar davomida maqsadli izlnishlar, tashkiliy tadbirlar yaxshi natija bilan yakunlangan, 1968 yilda sobiq MDH qishloq xo'jalik vazirligi Bushuyev qoramollarini sut yo'nalishidagi "Bushuyev zoti" deb tasdiqlagan.

Bushuyev zotli qoramollarning tusi o'ziga xos bo'lib, **oq suvsar** deb ataladi tanasi asosan oq bo'lib, gavdasining oldingi qismida parcha-parcha qora yoki qizil dog'lari bo'ladi. Qulog'i, burun oynasi, ko'z atrofi qora yoki qizil "ko'z oynakli" bo'ladi.

Bu zotga mansub mollar unchalik baland emas “yag’rin balandligi 121-122 sm”, ko’ragi chuqur 60-65 sm, lekin keng emas ko’rak ortidan ko’krak kengligi 30-35 sm. Boshi o’rtacha kattalikda, yengil, quruq, peshonasi o’rtacha kenglikda, yuz qismi torroq, bo’yni o’rtacha uzunlikda, muskuldor; orqasi o’rtacha uzunlikda, lekin keng emas, qisman qiyaroq; oyoqlari to’g’ri qo’yilgan. Sutdorlik belgilari o’rtacha ifodalangan, yelini o’rtacha oldingi surg’ichlari orqa surg’ichlariga nisbatan zaifroq rivojlangan, surg’ichlari bir-biridan keng joylashgan; sut venalari burtib ko’rinib turadi. **Jussasining kichikligi, orqasining torligi, ko’kraging keng emasligi eksteryerining** asosiy kamchiliklaridan hisoblanadi. Bu kamchiliklar naslchilik ishlari orkali bartaraf etilishi kerak.

Bushuyev zotli qoramollar kattaligi jihatidan o’rtacha zotlarga kiradi. Buzoqlari 24-25 kg bo’lib tug’iladi: 6 oyligida 120-130 kg, 1 yoshda 190-210 kg, 1,5 yoshda urg’ochilari 330-340 kg, buqachalari 380-400 kg keladi, intensiv o’stirilganda kuniga 800-1000 g semiradi. Katta yoshdagi sigirlari 450-550 kg, buqalarini 750-1000 kg keladi (A.Mustafoev).

Sut mahsuldorligi o’rtacha hisoblanib, 2600-3000 kg, sutining yog’liligi 4-4,2 %, oksili 3.4-3.5 % ni tashkil etadi

Yaxshi bo’rdoqilangan buqachalarini tirik vazni 18 oyligida 450 kg bo’lib, so’yim chiqimi 56-68 %, go’shtining tolasi mayin.

Chetdan keltirilgan madaniy zotlarga nisbatan ular qon parazit va leykoz kasalliklariga tabiiy ravishda bardoshli hisoblanadi.

Issiq iqlimga yaxshi bardosh berishi Bushuyev zotli mollarning muhim xususiyati hisoblanadi. Yozgi yuqori haroratlar unda moddalar almashinuvi va oziqalar hazmlanishida depressiyani vujudga keltirmaydi. Bushuyev zoti xo’jalik-biologik xususiyatlari, muhitning ekstremal omillariga moslashganligi, immuno-biologik sifatleri jihatidan katta ahamiyatga ega, shuning uchun undan intensiv foydalanish kerak.

Bushuyev zotini bilimdon olimlari A.A.Atbatsh'yan (marhum), M.Nortoijiyev, A.Mustafojev, A.Rengenov, B.Nosirovlar hisoblanadi.

Sh.Q.Amirov (2013) tomonidan o'rganilganda qo'yidagi ma'lumotlar olingan.

Ekstererni o'rganish maqsadida, ta'kidlangan zotdagi sigirlardan tana o'lchamlar olingan, shu asosda indekslarni chiqarib, konstitutsiyasi va sog'lomligi haqida xulosa qilingan.

16-jadval

Bushuyev zotli birinchi tug'imdagi sigirlarning tana o'lchamlari,sm

№	O'lchamlar	Sigirlarning laqabi		
		Tumanka	Martıshka	Mina
1	Yag'rin balandligi	117	120	121
2	Dumg'aza balandligi	124	125	127
3	Ko'krak chuqurligi	56	57	57
4	Gavdaning qiya uzunligi	145	147	148
5	Gavdani oldingi qismining uzunligi	34	35	35
6	Gavdani o'rta qismining uzunligi	56	58	60
7	Gavdaning orqa qismining uzunligi	40	41	43
8	Ko'krak kengligi	32	34	34
9	Yonbosh cho'qqilari oralig'i	37	38	39
10	Ko'krak aylanasi	155	156	158
11	Kaft aylanasi	16	16	16

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Mina"laqabli sigir tana o'lchamlari bo'yicha "Martıshka" va "Tumanka" laqabli sigirlardan ayrim ko'rsatkichlari bo'yicha biroz ustunlik qilgan.

Ekstererga yanada to'liqroq baho berish uchun olingan tana o'lchamlari asosida tana indeks ko'rsatkichlari chiqarilgan.

**Bushuyev zotli birinchi tug'imdagi sigirlarning
tana indekslari, %**

№	Indekslar	Sigirlarning laqabi		
		Tumanka	Martıshka	Mina
1	Uzunoyoqlilik	47,8	47,5	47,1
2	Uzunlik	123,9	122,5	122,3
3	Ko'krak	53,3	55,7	54,8
4	Tos-ko'krak	86,4	89,4	87,1
5	Suyakdorlik	13,6	13,3	13,2
6	Gavdaning oldingi qismi	23,4	23,8	23,6
7	Gavdaning o'rta qismi	38,6	39,4	40,5
8	Gavdaning orqa qismi	27,6	27,9	29,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tana indeks ko'rsatkichlari bo'yicha ham sigirlar o'rtasidagi katta farq kuzatilmagan.

Bushuyev zotli qoramollarning ekstererida ko'krakning torligi, jussasining kichikligining asosiy kamchilik ekanligi kuzatilgan. Bu o'z o'rnida Sh.Akmalxonov, M.Ashirov , B. Boybulovlarning ma'lumotlariga mos keladi. Barcha sigirlarning konstitusiyasida noziklik belgilari mavjud. Shunday bo'lsada, sigirlar sog'lom va sharoitga to'liq moslasha olgan. Bu ularni avlod berish xususiyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, institutning o'quv tajriba markaziga keltirilgan bushuyev zotli birinchi tug'imdagi sigirlarning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari qonuniyatlar asosida kechmoqda deb xulosaga kelgan.

T.Akmalxonov (2009) ning ma'lumotlariga ko'ra, turli sut mahsuldorligiga ega bo'lgan sigirlardan tug'ilgan buzoqlar, o'sish va rivojlanish davrida turlicha vaznga ega bo'ldi. Olim tajribasida Bushuyev zotiga mansub bo'lgan turli

mahsuldorlik darajasidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rgangan.

18- jadval

Buzoqlarning yoshi bo'yicha tirik vaznining o'zgarishi

Yoshi, oy	G r u h l a r			
	I		II	
	M ± m	Sv, %	M ± m	Sv, %
Tug'ilganda	30,2 ± 0,32	4,4	23,4 ± 0,26	4,16
3	88,4 ± 0,86	3,58	76,2 ± 0,62	2,86
6	156,4 ± 1,28	2,74	140,6 ± 1,19	2,96
12	260,8 ± 2,12	2,86	246,8 ± 1,88	2,62
13	362,4 ± 2,11	2,2	336,4 ± 2,14	2,52
Birinchi otalanganida	330 ± 2,48	2,62	338,4 ± 2,12	2,48
Birinchi tug'imda	438 ± 2,46	2,22	418,61 ± 3,86	3,36

1 guruhdagi buzoqlarni onalarini sut mahsuldorligi o'rtacha 3750 kg. 2 guruhdagilarni onalarining sut mahsuldorligi esa 2300 kg. bo'lgan.

Tajribadagi har ikkala guruhdagi buzoqlar bir xil asralgan va oziqlantirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1 guruhdagi buzoqlarni tug'ilganda 1 guruhdagilardan 6,8 kg. ustun bo'lgan, keyingi oylarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 12,2; 15,8; 15,4; 18,2; 11,6 va 20,2 kg.ga ustun bo'lgan.

Tajriba yakunida olim, kammahsuldor sigirlardan tug'ilgan buzoqlarni maqsadga muvofiq alohida jadal boqish usulida o'stirish kerak degan xulosaga kelgan.

Boybulov B. (2008) tadqiqotlarida Bushuyev zotli turli geneologik tizimdagi sigirlarning sutdorlik koeffitsiyentini o'rgangan.

1guruhga Gusar – 42, 2 guruhga Rekord 2358 va 3 guruhga Robin 2707 tizimdagi sigirlardan (12 boshdan) tanlab olingan.

19- jadval

Sigirlarning har 100 kg. tirik vazniga sut mahsuldorligi ko'rsatkichlarining chiqimi, kg. $\bar{X} \pm S_x$

Ko'rsatkichlar	G u r u h l a r		
	1	2	3
Tirik vazni, kg	463,1 $\pm$ 2,34	458,7 $\pm$ 2,89	451,4 $\pm$ 2,51
Sutdorlik koeffitsiyenti, kg	738,2 $\pm$ 13,6	704,9 $\pm$ 17,9	668,9 $\pm$ 26,8
4 % yog'li sut, kg.	725,3 $\pm$ 2,5	706,6 $\pm$ 12,8	665,5 $\pm$ 11,8
Sut yog'i chiqimi, kg.	29,01 $\pm$ 1,3	28,2 $\pm$ 1,08	26,6 $\pm$ 1,05
Sut oqsil chiqimi, kg.	25,4 $\pm$ 2,6	25,3 $\pm$ 3,3	23,6 $\pm$ 9,6

Jadval raqamlaridan ko'rinib turibdiki, I guruhdagi sigirlar tirik vazni bo'yicha II va III guruhdagi sigirlarni 4,4 va 11,7 kg. sutdorlik koeffitsiyenti bo'yicha tegishli 33,1 va 69,1 kg. ustunlik qilgan guruhlar bo'yicha 100 kg. oziqa birligiga ishlab chiqarilgan sut 1 guruhda 93,0 kg: 2 guruhda 92 kg. va 3 guruhda 91 kg. ni tashkil etgan.

Xo'jalik uchun Gusar 42 tuzilishidagi buqalardan foydalanish iqtisodiy samarador ekanligi aniqlangan.

I.Maqsudovning (2008) ta'kidlashicha Respublikamizning tabiiy – iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda, mamlakatimizda sut yo'nalishidagi zotlardan qora – ola, qizil cho'l va Bushuyev sut – go'sht yo'nalishidagi shvis, go'sht

yo'nalishidagi qozoqi oq bosh, Aberding – Anguss va Santa gertruda zotlari rejali ravishda urchitiladi. Olimning fikricha qaysi zot bo'lishidan qat'iy nazar ularga talab qilinadigan sharoit yaratib berilmasa o'zining mahsuldorlik imkoniyatlarini ruyobga chiqara olmaydi.

Avizov A. (2008) va boshqalarning fikricha O'zbekistonda yaratilgan yagona Bushuyev zotli qoramollarning bosh soni yildan – yilga kamayib bormoqda.

Bushuyev zotli qoramollarning genofondini saqlab qolish maqsadida qo'yidagilarni amalga oshirishni tavsiya etadilar:

- Bushuyev zotli qoramollarning zaxirasini shakllantirish zarur, bu o'z navbatida naslchilikda foydalanishni ta'minlaydi.
- Genofondni shaklini tashkillashtirishdagi amaliy tadbirlarni qo'llash, zotni qayta tiklanishida iqtisodiy maqsad hisoblanadi.
- Genofond xo'jaliklarida sof zotli urchitishni qo'llash va unda albatta autbred tipdagi saralashdan foydalanish.
- Zotga mansub eng yaxshi buqalarning urug'idan olib, spermasidan genofond bankni tashkil etish kerak.

Akmalxonov Sh. (2010) ning fikricha, sutdor qoramolchilikni tez

sur'atlar bilan rivojlantirishda oziqlantirishni to'g'ri tashkil etish, naslchilik ishini jadallashtirish, qoramollarni asrash tizim va usullarining maqsadga muvofiq xilini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayvonlarning mahsuldorligini oshirishda “iydirish” tadbiri muhim sanaladi.

Sigirlarni iydirishning – individual, guruhlab va yoppasiga iydirish kabi xillari bor.

Kunlik sut sog'imiga qarab, sigirlar guruhlarga ajratiladi. Bunda klassdagi sigirlarning sut mahsuldorligi o'rtasidagi farq 5 kg. ni tashkil etadi. Har bir

klassdagi guruhlar uchun konsentrat oziqa miqdori turlicha belgilanadi. Jadvalda konsentrat oziqalarning taxminiy sarfi berilgan.

20-jadval

Konsentrat oziqalar sarfining me'yori (1 kg. sut uchun)

Sut sog'imi bo'yicha klasslar	VIJ	Uz NIJ	Kir NIJ
100 kg.gacha	100	100	150 – 180
10 dan 15.kg.gacha	150	100 – 150	180 – 250
15 dan 20 kg.gacha	200	150 – 200	250 – 280
20 dan 25 kg.gacha	250	250 – 300	300
25 va yuqori	300	300 – 350	300

Yuqori mahsuldor sigirlar ko'p mahsulot beradi, ammo ular ko'p miqdordagi dag'al, shirali oziqalardan yetarli darajada to'yimlilikni qabul qila olmaydi shu bois ularga konsentrat oziqalarni ko'proq berish talab etiladi. Ikkinchidan kam mahsul va iyydirish vaqtdan so'nggi davrdagi sigirlarga konsentrat oziqalarni ko'p miqdorda berish iqtisodiy samarasiz bo'ladi.

Shunday qilib, turli mulk shakldagi xo'jaliklarda sigirlarni iyydirish tadbirlarini tashkil etish imkoniyati mavjud, bu tadbir amalga oshirilganda xo'jalik iqtisodiy samaraga erishadi.

Sh.Akmalxonov (2008) va boshqalarning fikricha sigirlarning mahsuldorligiga eksterer va konstitusiya tiplari ta'sir etadi.

Sigirlarning mahsuldorligiga konstitusiya tipining ta'sirini o'rganish maqsadida olimlar II ta tajriba guruhidagi shakllantirilgan va har guruhga 12

boshdan sigirlarni berkitgan konstitutsiya tiplarini aniqlashda D.I. Starsev va A.P. Beguchev (1961) larning metodikasidan foydalanilgan.

21-jadval

Turli ishlab chiqarish tipidagi sigirlarning sut mahsuldorligi va sutini sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	T I P			
	Sut		Sut – go'sht	
	M ± m	SV, %	M ± m	SV, %
Sog'im kunlar davomiyligi	301 ± 0,05	8,03	292 ± 4,16	6,82
Laktiyada sut sog'imi, kg.	3340 ± 58,4	6,82	2880 ± 36,4	7,88
Kunlik o'rtacha sog'im, kg.	10,20±0,16	7,22	8,42 ± 0,16	4,82
Sutdagi yog' miqdori, %	3,92 ± 0,03	2,14	3,93 ± 0,02	1,74
Sut yog'i chiqimi, kg.	130,2 ± 2,08	6,86	113,2 ± 1,24	6,12
Sutdorlik koeffitsiyenti	716 ± 12,28	8,14	592 ± 11,6	7,42

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sut tipidagi sigirlar sut – go'sht tipidagi sigirlardan 108 kg. ko'p sut bergan mos ravishda 17 kg. sut yog'i chiqimi ham ko'p bo'lgan.

Sirdaryo viloyati sharoitida sut tipidagi Bushuyev zotli sigirlar, sut – go'sht tipidagi tipidagi sigirlarga nisbatan mahsuldorligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, sermahsul sigirlar podasini shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi degan xulosaga kelgan.

B. Boybulov (2008) ning ta’kidlashicha sigirlarning sut mahsuldorligiga oziqlantirish omili katta ta’sir qiladi.

22-jadval

Bir bosh sigirga laktasiya davomida sarflangan oziqalar miqdori, kg

Oziqalar	Guruhlar					
	I		II		III	
	kg	oz.bir	kg	oz.bir	kg	oz.bir
Beda pichani	625,4	287,7	581,4	273,2	493,5	231,9
Makkajo’xori silosi	2527	511,2	2188	415,9	1947	369,3
Senaj	915	311,2	888	301,9	582	198,0
Xashaki lavlagi	1572,5	164,7	1372,5	164,7	1372,5	164,7
Ko’k beda	7105	1350	6847	1301	6789	1290
Omixta yem	1525	1067,5	1525	1667,5	1525	1067,5
Ularni tarkibida						
Oziqa birligi	-	3692,3	-	3524,2	-	3321,4
Almashinuvchi energiya, MDj	44057,0	-	42339,0	-	40018,0	3321,4
Quruq modda	4664	-	4471	-	4187	-
Hom protein	797	-	768	-	733	-
Hazmlanuvchi protein	556	-	537	-	515	-
Xom yog’	176	-	169	-	161	-
Xom klechatka	1042	-	487	-	835	-
BEV	2253	-	2170	-	2047	-
Kalsiy	61	-	58	-	54	-
Fosfor	23	-	23	-	22	-

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, birinchi guruhdagi sigirlar ikkinchi va uchinchi guruhdagi sigirlarga nisbatan oziqalarni ko'p iste'mol qilgan. Shu bois boshqa ko'rsatkichlar ham birinchi guruhda mos ravishda yuqori bo'lgan.

Sigirlarning nasllik qiymatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu sut mahsuldorligi hisoblanadi.

23- jadval

Tajribadagi sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	X $\pm$ Sx	C _v , %	X $\pm$ Sx	C _v , %	X $\pm$ Sx	C _v , %
Laktasiyadagi sog'imi, kg	3418,8 $\pm$ 79,5	8,05	3233,2 $\pm$ 102,7	10,9	3019,3 $\pm$ 137,1	15,7
Sut tarkibidagi yog'i, %	3,93 $\pm$ 0,03	2,8	4,01 $\pm$ 0,05	5,0	3,98 $\pm$ 0,03	3,01
Suttarkibida oqsil, %	3,44 $\pm$ 0,03	3,7	3,60 $\pm$ 0,04	4,4	3,53 $\pm$ 0,04	4,5
Sut yog'i chiqimi, kg	134,3 $\pm$ 2,03	5,25	129,6 $\pm$ 2,98	8,0	120,2 $\pm$ 4,38	12,7
Sut oqsili chiqimi, kg	117,6 $\pm$ 1,39	4,12	116,4 $\pm$ 1,39	4,1	106,6 $\pm$ 3,45	11,3
4 % yog'li sut, kg	3359,0 $\pm$ 50,4	5,2	3241,3 $\pm$ 74,4	8,0	3004,2 $\pm$ 109,4	12,6
Sutdorlik koeffisiyenti, kg	738,2 $\pm$ 13,6	6,4	704,9 $\pm$ 17,9	8,8	668,9 $\pm$ 26,8	13,9
Quruq modda,	12,44		12,54		12,50	

%						
YoQSQ, %	8,68		8,69		8,69	

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Gusar - 42 laqabli buqaniing qizlari sut mahsuldorligi, sutini yog' va oqsil chiqimi, 4 % yog'li sut miqdori bo'yicha ham Rekord 2358 va Robina 2707 laqabli buqani qizlaridan ustunlik qilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, uchala guruhda sigirlar sutini tarkibidagi sut yog'i, oqsili, sut yog'ini chiqimi bo'yicha ham bushuyev zoti standartidan yuqori ko'rsatkichda bo'lgan.

III. 4. Muammoning yechimidan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik

Ilmiy izlanishlar natijasi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Urchitilayotgan qoramol zotlarini yaxshilovchi zotlar; Golshtin (qora-ola va qizil-ola), Daniya qizil, angler bilan chatishtirish ko'p tajribalarda yuqori iqtisodiy samara berishini ko'rsatgan.

Ularni quyidagicha izohlash mumkin;

Isroil golshtin zotli buqalarining qizlari I - laktasiyada 4741 - 4894; II-laktasiyada 5190 - 5233; III - laktasiyada esa 5361 - 5432 kilogramm sut berib, 1 kilogramm sut uchun 1,21 oziqa birligi sarflagan. Mahsuldorlik oshib borgan sari unga qilinadigan oziqa harajatlari kamayib borgan.

Golshtinlashgan sigirlarning I- avlodi I- tug'ishda o'rtacha 5188 kilogrammdan 6210 kilogrammgacha sut bergan. Yog'liligi 3,80-3,84 foizga to'g'ri kelgan. Golshtin zotining qoni avlodlarda ko'tarilishi bilan sut sog'imi qo'shimcha 291-295 kilogrammga oshgan. Qora-ola zotli tengdoshlariga nisbatan sut sog'imi 501 kilogrammga va sut yog'i 19,2 kilogrammga ko'tarilgan.

Rossiyaning Pushkinskoye naslchilik xo'jaligida II - bo'g'in golshtin genotipli sigirlar I – laktatsasida o'rtacha 8437 kilogramm, III - bo'g'inidagilari 8337 kilogramm, IV - bo'g'inidagilari 8090 kilogramm sut bergan.

Yu.Kotlyarov, N.Kulunduk, O.Yankinalarning (2005) tadqiqotlarida qora-ola zotli sigirlarni golshtin zotli buqalar bilan chatishtirishdan olingan sigirlar zotdorligining oshishi bilan sut mahsuldorligi ham oshib borgan. Uning miqdori I - bo'g'in chatishma sigirlarda qora - ola zotli tengqurlaridan 348 kilogrammga, II - bo'g'inda esa 627 kilogramm yuqori bo'lgan.

R.3.Xudoyorov (2002) ning ma'lumotiga ko'ra, Xorazm viloyatiga 1992 yilda Rossiyadan (Быково kishlog'i) 1200 doza qizil-ola golshtin buqalarini spermasi olib kelingan va qizil cho'l sigirlari sun'iy ravishda urig'lantirilgan. Olingan I-bug'in avlodlarini sutdorlik indeksi 762,5 kilogrammni tashkil qilgan bo'lib, angler bilan olingan I-bug'in avlodlaridan 67,5 kilogramm yoki 11,4 foiz, II-bug'indan esa 192,4 kilogramm yoki 33,7 foiz ko'p bo'lgan. Tajribalarda Qizil-ola golshtin buqalari bilan chatishtirib olingan I-bug'in avlodlari toza zotli qizil cho'lga nisbatan laktasiya davrida 1078 kg yoki 40,6 foiz ko'p sut bergan.

Zoporojye viloyatidagi "Rassvet" tajriba xo'jaligida qizil cho'l zotli sigirlarni qizil-ola va golshtin buqalari bilan qon singdirib chatishtirish usuli bo'yicha tajriba o'tkazgan (P.N.Proxorenko, J.G.Loginov, 1986). Natijada 1-bo'g'in duragaylar sof zotli qizil cho'l sigirlaridan 263- 433 kg sut va 5,6- 12,9 kg sut yog'i ko'p bergan. Bu chatishtirishda qondoshlik ko'payishi bilan sog'im, sut yog'i qo'shilishi qayd qilingan. 2- bo'g'in duragay 1- bo'g'in duragaylariga qaraganda sutni 462 kg, sut yog'ini esa 16,3 kg ko'p bergan.

III. 5. Ekologik muammolar, hayot faoliyati va texnika xavfsizligi

Mehnat muxofazasi bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirishdan maqsad ishlovchilar uchun ish sharoitlarini mehnat kodekslaridagi qoida, me'yoriy standartlar, direktiv organlarning qarorlariga asoslanib oqilona yo'llarini aniqlash va amalga oshirishdir. Rejalashtirishni Davlat nazorati va mehnati bo'yicha texnik inspeksiya organlari farmoyishlarini, o'tgan yillar ichida sodir bo'lgan jaroxatlarning sabablarini va taxlil natijalarini, mehnat xavfsizligiga ajratilgan mablag'ni o'zlashtirish va ishlab chiqarishda sodir bo'lgan baxtsiz xodisalar bo'yicha xisobotlarni, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'kotganlar to'g'risidagi tahlil natijalarini, sharoitlarni yaxshilash kompleks rejalarining bajarilishi bo'yicha xisobotlarni va mehnat xavfsizligi va sanitariya-sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi. Rejalashtirishda rejali ko'rsatkichlarning yutuqlariga: zararli mehnat sharoitlarida va og'ir jismoniy mehnat sharoitida ishlovchilarni va obyektlar sonini qisqartirilishiga e'tibor beriladi. (G'oyipov.X.E. 2000)

Chorva mollarining maxsuldorligini oshirish, ularning sog'lig'ini yaxshilash, yem-xashak tayyorlash va veterinariya xizmatini ko'rsatish chorvadorlarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu masalalarning muvaffaqiyatli hal etilishi keng tarqaladigan kasalliklarga qarshi o'z vaqtida profilaktika chora-tadbirlarni o'tkazish, hayvonlarni yaxshi parvarishlashga va boqishga bog'liqdir. Shuning uchun chorva mollari boqilayotganda gigiyena va mehnat xavfsizligiga rioya qilish, shuningdek diagnostika, davolash yoki profilaktika ishlarini olib borishda ularni harakatsizlantirib (fiksasiya) qo'yish, aloxida ahamiyatga ega. Chorva mollarini parvarishlaganda elementar xavfsizlik choralarga rioya qilinmasa xizmat ko'rsatuvchi chorvador va xayvonlar jaroxatlanishga sabab bo'ladi. Shuningdek zoogigiyena va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, uni bilmaslik kishilarni va xayvonlarni kasallanishga olib keladi. Texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi ishlarini tashkil etish, boshqarish va javobgarlik xo'jalik raxbarlariga, shuningdek tarmoq bo'yicha hamma amaliy ishlarni bajarish bosh zoomuxandis va bosh veterinariya shifokoriga yuklanadi.

Bo'lim va fermalarda bo'lim boshqaruvchilari va ferma mudirlariga, zoomuxandisga va veterinariya shifokoriga xamda uchastkalarda, brigadalarda, sexlarda — uchastka» brigada, sex boshliqlariga yuklanadi. Qoidaga muvofiq 18 yoshga to'lmagan va xomilador ayollarni ayg'ir otlarga, erkak cho'chkalar va va buqalarga xizmat ko'rsatishi qat'iy man etiladi. Qolgan chorva mollariga xizmat ko'rsatishga, tibbiyot ko'rigidan o'tgan va kasaba uyushmasi ko'mitasining ruxsati bo'lgan, 16 yoshga to'lgan o'smirlar qo'yiladi. Ferma yoki molxonada chorvador va zoovetmutaxassislardan boshqa shaxslar bo'lishi mumkin emas. Asov mollar boqiladigan kataklar yonidan o'tishda ulardan ehtiyot bo'lishlik to'g'risida ogoxlantiruvchi (ehtiyot bo'ling, buka, sigir suzadi, ot tepadi, tishlaydi va boshqalar) yozuvlar ilib qo'yiladi. Hayvonlar bilan har doim qo'rqqmasdan, sekin va osoyishta muomalada bo'lmoq kerak.

Qishloq xo'jaligi binolarini yashindan himoya qilishda - uch qismdan tarkib topgan yashin qaytargichlar ishlatiladi: yashin qabul qiluvchi, tok o'tkazuvchi va yerga ulash. Yashin qaytargichlar sterjensimon, antennali va to'rsimon bo'ladi. Ulardan ko'p tarqalgani sterjensimon yashin qaytargichlardir. Yashin asosan eng baland binoga tushadi. Yashindan himoyalaniishning eng oddiy usuli metall sterjenni maxkam qotirib yerga ulashdan iboratdir. Bundan sterjin bino atrofida ko'rinishi ikkitali konusga o'xshash aylana asosli himoyalovchi doira xosil qiladi, uning radiusi yashin qabul qiluvchining balandligidan 1,5 barobar kattadir. Trosli yashin qabul qiluvchining ximoyalaniish doirasining yuqori qismi, trosning maksimal yegilish nuqtasidan o'tkazadigan to'g'ri gorizontal bilan chegaralangan. Bir necha yashin kaytargichlarni qurganda ularning yerga ulanishi umumiy bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi texnikasi odatda xo'jaliklarning tibbiy tashkilotlari (poliklinikalar, tibbiyot punkti, ambulatoriya) joylashgan markaziy qismidan ancha uzoq joylarda ishlatiladi. Shuning uchun mexanizator o'ziga-o'zi birinchi yordam ko'rsatishni bilishi kerak. Hozirgi traktorlar, murakkab qishloq xo'jaligi mashinalari va avtomobillarni korxona ma'muriyati dori-darmonlar to'plami bor tibbiyot aptechkasi bilan ta'minlashi zarur. Aptechkada quyidagilar bo'lishi lozim: ichimlik soda — 200 g, validol — 30 tabletka, borat kislota — 60 g, leykoplastir

— (1x15 sm) — 5 dona, vazelin — 50 g, rezina arqon — 1 dona, shaxsiy paket — 10 dona, bint — 10 dona, novshadil spirti — 20 g, paxta — 100 g, shinalar — komplekti, yod eritmasi bo'lishi kerak.

Organizmga ta'sir ko'rsatadigan tashqi muhit omillari ekologik omillar deb aytiladi. Organizmlar yer yuzida tarqalishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi har bir tashqi muhit elementi ekologik omil deyiladi. Ekologik omillar 3 guruhga bo'linadi.

1. Abiotik omillar - ularga iqlim, harorat, radiaktiv nurlar, yorug'lik, havo oqimi, havoning namligi, shamol, suvning tuz tarkibi, tuproq kirib hammasi jonsiz tabiatning hususiyatlaridir. Ular jonli organizm rivojiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Biotik omillar - ular barcha jonli organizmlarning o'zaro ta'siridir. Har bir organizm doimiy ravishda boshqa organizmlarning bevosita yoki bilvosita ta'sir etishini sezib turadi. O'z turi yoki boshqa tur vakillari bilan doimiy ravishda bog'lanishda bo'ladi. O'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlarni o'zaro ta'siri biotik omillar hisoblanadi. Organizmlarning o'zaro bog'lanishi bu biosenozlar populyasiyasining mavjudligiga asoslangan.

3. Antropogen omillar - bunga kishilik jamiyati tomonidan tabiatga bo'lgan ta'sir kiradi. Bu butun tabiatdagi boshqa turlarning ozuqa muhiti sifatini o'zgartiradi, ularning hayotiga ta'sir etadi. (Ergashov U. 2003)

Ekologik omillarning ko'pchiligi harorat, namlik, shamol, yirtqich kushandalar va boshqalar makoni juda ham o'zgaruvchandir. Ularning har birini o'zgaruvchanligi darajasi ozuqa miqdoriga bog'liq. Masalan, harorat quriqlikda tez o'zgarib turadi, okean tubida yoki g'ordagina u bir hil bo'ladi, yoki kam o'zgaradi. Sut emizuvchi parazitlar ko'p yashaydi, vaxolanki erkin yashydigan yirtqichlar esa ozuqa muhitiga va manbalariga bog'liqdir. Keyingi davrlarda olib borilgan kuzatishlar shundan darak beradiki chang, to'zon, har xil pestisidlar, zavod va fabrikalardan chiqqan chiqindilar oqibatida aerosol miqdori ortib atmosfera

havosining ifloslanishi, dunyodagi eng muhim muammolarga aylanmoqda. Havodagi zararli va zaharli chiqindilar chang, to'zon, tutun, har xil mikroorganizmlar, o'simlik changlari, uglerod oksidi, vodorod sulfid, uglevodlar, organik moddalar, sulfidlar, nitratlar, qo'rg'oshin, temir, ftor birikmalari, radiaktiv moddalar, pestisidlar yig'indisidan iboratdir. Bu kimyoviy moddalarning ko'pchiligi quyosh nuri ta'sirida atmosferani (ozon ekranida) hali to'liq tekshirilmagan kimyoviy reaksiyalar sodir qilib, yana ham o'ta zararli moddalarni hosil qilishlari mumkin.

Yuqorida qayd etilgan aralashmalar havoga qo'shilib uning xususiyatini o'zgarishiga sabab bo'ladi. XX asr o'rtalariga kelib tabiiy resurslardan foydalanishda nomutanosiblik paydo bo'lishi tabiatdagi nomutanosib ekologik munosabatni izdan chiqardi. Ayniqsa ichki suv manbalaridan foydalanishda yo'l qo'yilgan hatolar butun dunyoni tashvishga solmoqda. Suvlarning ifloslanishi tabiiy muhitda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ifloslangan suv havzalaridagi jonzorlar bilan birga o'simliklar dunyosi ham zarar ko'rmoqda. Masalan: Orol dengizi regionidagi suv manbalaridan noto'g'ri foydalanish tufayli dengizda suvlarning ko'payishi va suvning kamayishi jonli organizmlarning qirilishiga sabab bo'ladi. Ichki suv havzalari bo'lmish daryo va ko'llarni asosan sanoat chiqindilari, rudali va rudasiz qazilma boyliklarni tayyorlash jarayonida hosil bo'lgan chiqindilar: shaxta, kon, neft, konlarning oqindi suvlari, shahar quduqlaridan hamda o'g'it va zaharli moddalar qo'llanilgan daralardan oqib chiqqan suvlar, yog'och tayyorlash, yog'och oqizish, yog'ochlarni qayta ishlash vaqtida chiqqan chiqindilar, chorvachilik fermalaridagi suvlar ifloslaydi. Ekologik muammolarni yechish nihoyatda og'ir, ekologik muammolar chegara bilmaydi. Muammolarning asosiy qismi odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liqdir, zero insonning xo'jalik faoliyati natijasida har yili 30 - 40 mln tonna chiqindi biosferaga chiqariladi. Bu ko'rsatkich XXI asrda 100 mln tonnaga yetib, kelajakda yanada oshishi va 2020 yillarga borib, 2 marta ko'payishi taxmin qilinmoqda.

Yillar davomida to'plangan chiqindilar inson hayoti uchun nihoyatda havfli moddalarni hosil qilishi tadqiqotlarda to'la isbotlanmoqda.

Zamonaviy chorvachilik qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri bo'lib, chorvachilik mahsulotlari tayyorlash uchun yirik va mayda qishloq xo'jalik mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ekologik jihatdan tozaligini taminlaydigan, aminokislotali vitaminlarga boy to'laqonli oziqlantirish qishloq xo'jalik hayvonlarining mohirona parvarishi go'sht va sut mahsulotlari bozorida salmoqli o'rin egallagan. Chorvachilik mahsulotlarining sifati jihatidan qimmatini ta'minlovchi asosiy mezonlardir. Hozirgi vaqtda sut chorvachiligi o'zining kelgusi taraqqiyoti uchun yangi, o'ziga xos shart sharoitni talab qiladi. Chorvachilikning asosiy va doimiy muammosi ozuqa bazasining yetishmasligi va bu yetishtirilayotgan mahsulot sifatini pasayishiga ham sabab bo'ladi. Ekologik chorvachilik, birinchi navbatda, yuqori sifatli va kaloriyali go'sht va sut mahsulotlari olishini ta'minlovchi yuqori sifatli oziqlantirish tizimini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib, boy to'laqonli oziqlantirish, qishloq xo'jalik hayvonlarining mohirona parvarishi go'sht va sut mahsulotlari bozorida salmoqli o'rin egallagan chorvachilik mahsulotlarining sifati jihatidan qimmatini taminlovchi asosiy mezondir. Hozirgi vaqtda go'sht chorvachiligi o'zining kelgusi taraqqiyoti uchun yangi, o'ziga xos shart sharoitni talab qiladi. Chorvachilikning asosiy va doimiy muammosi ozuqa bazasining yetishmasligidir va bu yetishtirilayotgan mahsulot sifatini pasayishiga ham sabab bo'ladi. Ekologik chorvachilik, birinchi navbatda, yuqori sifatli va kaloriyali go'sht va sut mahsulotlari olishini ta'minlovchi yuqori sifatli oziqlantirish tizimini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qiladi. Sog'ligini to'liq saqlash uchun hayvonlarga tabiiy mikroelementlar, kalsiy, aminokislotali vitaminlar zarur. O'simliklardan olinadigan vitamin aminokislotalarning balanslashtirilgan kompleksi – bu aynan hayvon sifatli o'sishi va rivojlanishi uchun zaruriy ozuqadir. Hayvon salomatligi uning tanasida dori – darmonlar qoldig'i va boshqa boshdan kechirgan kasalliklar asorati mavjud emasligi yakuniy mahsulot sifatining asosi

hisoblanadi. Aytish mumkinki xoriydagiga nisbatan toza ekologik sharoitda o'stirilgan mamlakatimizdagi chorva mollari hozirdagiga nisbatan miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha ortda qolsada, sifat jihatidan qator ustunliklarga ega. Masalan: ularning tarkibida zararli moddalar mavjud emas.

Shunday qilib, hozirgi chorvachilikdagi asosiy muammo bizning mamlakatimiz sharoitida juda oson hal etilishi mumkin, ya'ni hayvonlarni sifatli oziqlantirish hisobiga ularning salomatlik darajasi oshadi, shuningdek bu ekologik toza va energetik qimmatli yuqori mahsulot olishga ham zamin yaratadi. Ma'lumki, chorvachilik ekologik qishloq xo'jaligining integrasiyalashgan tarkibiy qismi hisoblanadi.

Chorvachilik ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tuzilmalariga muvozanat o'rnatilishida bevosita hamkorlik qilish lozim, bunda o'simliklarning ozuqa moddalariga talabi qondiriladi va tuproqning organik tarkibi yaxshilanadi. Shu tariqa tuproq va o'simlik, o'simlik va hayvon, shuningdek hayvon va tuproq o'rtasida moddalar almashinishini rag'batlantiradi. Ekologik qishloq xo'jaligida barcha chorva mollari ekologik standartining asosiy qoidalariga rioya etilgan holda yagona ishlab chiqarish korxonasi tarkibida o'stirilishi lozim. Ekologik barqarorlikni saqlashda biologik xilma xillikka hozirda keng e'tibor qaratilgan. Shuning uchun hozirgi chorvachilik uchun asosiy mo'ljal sifatida ikki jihatini aytish mumkin. Bularga erishish uchun eko –standartlar doirasida yagona ishlab chiqarish birligini tashkil etilishi yoki mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan chorvachilik fermer xo'jaliklari uchun muqobil standartlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina mahsulot miqdorini oshirish barobarida uning ko'zga ko'rinmaydigan oqibatlari, yani suvning ifloslanishi, yaylovlar kamayishi, tuproq eroziyasi kabilarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Xulosalar

1. O'zbekiston sharoitida sut yo'nalishidagi qoramol zotlaridan qora-ola, qizil cho'l va bushuyev zotlari rejali ravishda urchitiladi.

2. Hozirigi vaqtda xorij mamlakatlardan keltirilgan naslli qoramollar hisobidan sut ishlab chiqari ma'lum darajaga ko'paygan.
3. Prezidentning e'lon qilingan 308 va 842 qarorlari asosida joylarda zooveterinariya punktlari tashkil qilingan va bunday joylarda qoramollarning nasldorlik sifatlarini yaxshilash maqsadida sigirlar mashhur buqalarning urug'lari bilan su'niy urug'lantirilmoqda.

Su'niy urug'lantirish natijasida qora-ola, qizil cho'l kabi zotlarning mahsuldorligi yaxshilanganligi ko'p tajribalarda aniqlangan.

4. U.R.Soatov, U.N.Nosirov (2003) malumotlariga ko'ra Isroil golshtin buqalarining qizlari I - laktasiyada 4741 - 4894; II-laktasiyada 5190 - 5233; III - laktasiyada esa 5361 - 5432 kilogramm sut mahsuldorlikni namoyon qilgan. Qora - ola zotini 62,5 foizga golshtinlashtirib so'ngra "o'z ichida" urchitish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Golshtinlashgan sigirlarning I - avlodi I- tug'ishda o'rtacha 5188 kilogrammdan 6210 kilogrammgacha sut bergan. Yog'liligi 3,80-3,84 foizga to'g'ri kelgan. Turli tipdagi qora-ola zot sigirlar bilan golshtin zoti chatishtirilgandan olingan avlodlar yelinini texnologik xususiyatlari yaxshilanadi. Unda elinning kosasimon shakli 8 - 45 foizga ko'payib, sut berish tezligi 0,08-0,56 kg/min oshgan.
5. Qizil cho'l qoramol zotini angler bilan chatishtirishdan olingan duragay avlodlarning xo'jalik belgilari yaxshilangan. Sigirlarning yeksterer ko'rsatkichlari, tirik vazni, sut maxsuldorligi va uning yog'lik ko'rsatkichlarining iqtisodiy samaradorligi bo'g'imlararo o'zaro solishtirganda II tuqqan sigirlar I tuqqaniga nisbatan ancha yaxshi natija ko'rsatgan. Professor E.Yu.Karchevskiy O'zbekiston qora-ola zotli mollarning shakllanish va takomillashtirish jarayonlarini beshta davrlarga ajratgan.
6. Hozir qora-ola zoti mamlakatimizda , son jihatdan birinchi o'rinni egallaydi. Respublikamizda yetishtirilayotgan sutning salmoqli qismi qora-ola zotli sigirlardan olinmoqda. O'zbekiston uchun sut yo'nalishidagi qoramollar ichida eng istiqbollisi hisoblanadi. Bu zotni yaxshi biladigan olimlar akademik Sh.A.Akmalxonov, professorlar M.I.Ashirov, E.Yu.Karchevskiylar hisoblanadi.

7. Germaniyada golshtinofriz zotiga mansub Keno, Amadin va Jeff laqabli buqalarning nasldorlik xususiyati yuqori baholangan. Arelano va Tabsil buqalari esa Germaniya va O'zbekistonda ilk marotaba tekshiruvda sinalgan.
8. Qizil cho'l zoti O'zbekistonda rejali ravishda urchitilayotgan qoramollar sirasiga kiradi. S.G.Davidov kuzatuvlarga asoslanib, qizil cho'l zotini O'zbekistonda keng miqiyosda urchitishni 1929 yildayoq tavsiya etgan. Ushbu zotni yaxshilashda golshtin (qizil-ola), angler va daniya qizil zotlaridan foydalanilmoqda.
9. N.O.Mavlonov ma'lumotlariga ko'ra, keltirilgan tanalardan har birining tirik vazni 12 oyligida 204 kg dan 343 kg gacha (o'rtacha 232,5 kg), 24 oyligida 275 kg dan 450 kg gacha (o'rtacha 319,4 kg) bo'lgan, 1941 yili "Samarqand-1" va "Oqdaryo-2" xo'jaliklarida birinchi marta tuqqan 236 bosh sigirning har biridan sog'ish davrida 2509 kg sut, ikkin marta tuqqanlarining 20 boshidan 3161 kg va voyaga yetgan 91 bosh sigirdan yog'i 3,4 – 3,5 % li 3700 kg sut olingan.
10. O'zbekistonda qizil cho'l zotining asosiy naslchilik bazasi Xorazm viloyatida yaratilgan. U yerda 18 ta naslchilik fermasi va naslchilik xo'jaligi mavjud. Maxtumquli nomli xo'jalikning naslchilik fermasida qizil cho'l zot sigirlarining o'rtacha sut sog'imi 3253 kg ga va uning yog'lilik darajasi 3,83 foizga teng.
11. N.A.Shalimov, T.A.Zalevskayalarning (1998) yozishicha, qizil cho'l zotli qoramollarni ularga qarindosh angler zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki angler zotli sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga, sutida yuqori darajadagi yog' ko'rsatkichiga, yelinining mutanosib rivojlanganligiga, ozuqani yaxshi qoplash xususiyatiga ega.
12. M.I.Ashirov va boshqalar (1994) tadqiqotlarida, Buxoro viloyati sharoitida qizil cho'l zotli sigirlarni Daniya qizil zotiga mansub buqalar bilan chatishtirish, olingan duragay mollarning mahsuldorligini ko'paytirish bilan birga ularning podani qayta to'ldirish xususiyatini ham yaxshilash imkonini bergan.
13. O'zbekistonning yagona madaniy mahalliy zoti bo'lib, Mirzacho'l hududida yaratilgan. U rejasiz, lekin ma'lum maqsadni nazarda to'tgan holda, mahalliy

zebusimon qoramollarni Gollandiya, Shvis va simmental zotlari bilan murakkab ishlab chiqarish tipida chatishtirish natijasida yaratilgan. Olingan duragaylar tanlanib “o’z ichida” urchitilgan. Yosh qoramollarni yaxshi oziqa sharoitida o’stirishga alohida e’tibor berilgan.

Bushuyev zotini bilimdon olimlari A.A.Atbatsh’yan (marhum), M.Nortojoyev, A.Mustafojev, A.Rengenov, B.Nosirovlar hisoblanadi.

14. Avizov A. (2008) va boshqalarning fikricha O’zbekistonda yaratilgan yagona Bushuyev zotli qoramollarning bosh soni yildan – yilga kamayib bormoqda.

Bushuyev zotli qoramollarning genofondini saqlab qolish maqsadida qo’yidagilarni amalga oshirishni tavsiya etadilar:

- Bushuyev zotli qoramollarning zaxirasini shakllantirish zarur, bu o’z navbatida naslchilikda foydalanishni ta’minlaydi.
- Genofondni shaklini tashkillashtirishdagi amaliy tadbirlarni qo’llash, zotni qayta tiklanishida iqtisodiy maqsad hisoblanadi.
- Genofond xo’jaliklarida sof zotli urchitishni qo’llash va unda albatta autbred tipdagi saralashdan foydalanish.
- Zotga mansub eng yaxshi buqalarning urug’idan olib, spermasidan genofond bankni tashkil etish kerak.

Ishlab chiqarishga amaliy taklif va tavsiyalar

1. Xo’jaliklarda rejali ravishda urchitilayotgan qoramol zotlaridan unumli foydalanish maqsadida ularni birinchi to’g’im yoshida sut mahsuldorligi bo’yicha baholash va xulosa qilish kerak.
2. Sigirlarning sut mahsuldorligini yaxshilash maqsadida import yo’li bilan keltirilgan naslli buqalarning urug’idan foydalanish maqsadga muvofiq.
3. Bushuev zotining genofondini saqlab qolish uchun tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Veterinariya tugrisida” gi Davlat konuni. Toshkent., 1993. 3 sentyabr.
2. “Naslchilik tugrisida” gi Davlat konuni. Toshkent., 1995. 21 dekabr.
3. «Shaxsiy yordamchi, dexkon va fermer xujaliklarida chorva mollarini kupaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari tugrisida » gi Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23-martdagi PQ-308 sonli qarori.
4. «Shaxsiy yordamchi, dexkon va fermer xujaliklarida chorva mollarini kupaytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chrovachilik mahsulotlarini ishlab chikarishni kengaytirish borasidagi kushimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21-apreldagi PQ-842 sonli qarori.
5. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “O'zbekiston” 2008.
6. Karimov I.A. O'zbekiston Mustakillik bo'sag'asida. Toshkent. 2011.
7. Karimov I.A. Joxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. Toshkent. “O'zbekiston” 2009.
8. Karimov I.A. Bosh miqsadimiz keng ko'lamli isloxotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom yettirish. 2012 yilda mamlakatimizni ishtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari hamda 2013 yilga muljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yunalishlarga bag'ishlangan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisda qilingan maruzasi. Toshkent. 2013.18 yanvar.
9. Abdalniyo'zov B.O. – Zotlar aro chatishtirish samaralari.//O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali. № 6. 1996.
10. Abdalniyo'zov B.O., Nosirov U.N. Qizil cho'l - golshtin zotlari birinchi avlod duragaylarining o'sishi. O'zbekiston iqtisodiy isloxatlari davrida chorvachilikni rivojlantirishning ilmiy va amaliy asoslari. Toshkent 1996.

11. Abdalniyozov B.A. Duragay sigirlar va mahsuldorlik. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. № 1. 1998.
12. Abdalniyozov B.A. Xorazm chorvachiligi. Qizil cho'l zotli qoramollarning nasl va mahsuldorlik sifatlarini yaxshilashning ilmiy va amaliy asoslari. Dok. Diss. 1999.
13. Abduxakimova M.O., Amirov Sh.Q. O'quv tajriba markazida urchitilayotgan qoramol zotlari . Iqtidorli talaba va magistrnlarning "Fermar xo'jaliklarida muammolar yechimida talabalar ilmiy tadqiqotlarining o'rni" mavzusidagi ilmiy konferensiyasi to'plami. Samarqand 2012, 76-77 b.
14. Avizov .A., Akmalxonov T, Ballasov.U. Nekotorye aspekty soxraneniya genofonda Bushuyevskoy porody.Zooveterinariya jurnali № 5,2008, 34 –37 b.
15. Akmalxonov Sh. Biologicheskiye i zootexnicheskiye osnovy razvedeniya molochnogo skota v Uzbekistane. Toshkent. «Mexnat» 1993. 160s.
16. Ashirov M. Nauchnyye osnovy i prakticheskiye priyemy sovreshenstvovaniya plemennyx i produktivnyx kachestv cherno-pestrogo skota v usloviyax jarkogo klimata: Avtoref. dis...dokt.s.x. nauk.- Toshkent, 1994. 50s.
17. Belousov A., Yusupov R., Zenkov P., Suleymanov A. Osobennosti golshtinskogo skota gollandskoy seleksii. // Molochnoye i myasnoye skotovodstvo. 2010. № 3. S. 9-10.
18. Boybulov.B, Ashirov.M. "Bushuyev zotli sigirlarning maxsuldorlik xususiyatlarining tizimlarga bog'liqligi". J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. № 4. 2008.
19. Mavlyanov N.O., Biserova N.I., Abdalniyozov B.A. – Sovreshenstvovaniye skota krasnoy stepnoy porody. Trudy Sam SXI. Tom. XVI. 1968.
20. Dosmuhamedova M. Turli golshtin genotipli qora-ola zotli sigirlarda issikka chidamlilik va sut mahsuldorligini o'zaro bog'liqligi. "Zoovetirinariya" jurnali . 2008. № 9. 30 - 31 b.

21. Kotlyarov Yu., Kulunduk N., Yankina O. Vliyaniye kormleniya na uspex golishtinizisii skota v Primorskom kraye. // Molochnoye i myasnoye skotovodstvo. №3. 2005.S.4-5.
22. Lyashuk R.N., Shendakov A.I., Sorokin V.V. Povysheniye geneticheskogo potesiala molochnogo skota. // Zootexniya, № 3. 2009, S. 2 - 3.
23. Nosirov U.N. Qoramolchilik.- Toshkent O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2001. -383 b.
24. Nosirov T.U. «Yaxshilovchi» buqalar avlodining issiqqa chidamliligi bilan sut mahsuldorligining bog'lanishligi.
// Zoovetirinariya. № 9 . 2008, 28-29 b .
25. Nosirov U.N., Maksudov I., Dosmuxammedova M.X. O'zbekistonda qoramolchilikni modernizasiyalash omillari. Toshkent. SMI-ASIA. 2011. 199 b.
26. Nosirov U.N., Dosmuxammedova M.X. va boshqalar. Vengriya va Xitoy golshtin sigirlarning rivojlanishi eksteryer xususiyatlari va sut mahsuldorligi. "Zooveterinariya" jurnali. 2012. № 5-6. 36-37 b.
27. Nasirov T. U. Osenka bikov-uluchshateley golshtinskoy porodi po genotipu i selesionnomu efektu. Avtoreferat dissertasii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata selskoxozyaystvennix nauk. Tashkent 2010.
28. Nosirov U.N. Qora-ola zotli golshtin genotipli sigirlarning tabiiy-iklim sharoitiga moslashish xususiyatlari. Zoovetirinariya. jurnali 2012. № 5-6. 31-32 b.
29. Proxorenko P., Mixaylov D. Vliyaniye genitichiskix i sredovyx faktorov na teloslojeniye golishtinizirovannogo skota. // Molochnoye i myasnoye skotovodstvo. 2000. № 2. S. 23 - 24.
30. Sarapkin V.G., Svetova Yu.A., Ivanov S.N. Osobennost vymeni u golishtinizirovannyx cherno-pestryx korov. // Zootexniya, 2004. № 2. S. 18-20.
31. Salibayev B. L. Ros, razvitiye i myasnaya produktivnost dvux i trex porodnyx pomesnyx bychkov golshtinskogo skota pri texnologii soderjaniya na

ploshadkax i odnatipichnoye karmeniye. Avtoref. diss. kand. s -x. nauk. Toshkent. 1995. 23 s.

32. Sobirov P.S. Golishtino-friz zotini qora-ola zotini yaxshilashdagi o'rni. Sam. KXI. ilmiy to'plami. Samarkand . 1995. 65-66b.

33. Sobirov P.S. Buxoro viloyati sharoitida yuqori maxsuldor podalarni yaratish. SamQXI Ilmiy ishlar to'plami. Samarqand, 1998

34. Sobirov P.S. Qizil cho'l va angler duragay sigirlarining sut maxsuldorligini o'rganish. SamQXI Ilmiy ishlar to'plami. Samarqand, 1998

35. Sulıya N.V., Koralyova G.P. Produktivnyye kachestva korov-pervotelok golishtinskoy cherno-pestroy porody Vengerskiy seleksii v adaptasionnyy period. // Zootexniya, № 2. 2010. S. 4-6.

36. Xudayorov R., Abdalniyozov Sh. Golshtinlashtirilgan qizil cho'l qoramollarining Oral bo'yi sharoitiga maslashish xususiyatlari. //Zooveterinariya. - Toshkent, 2010. №10. 23-25 b.

37. Trufanov V.G., NovikovD.V., Baryshnikov K.S. i dr. Produktivnyye kachestva golishtinskix korov Vengerskiy seleksii raznyx genotipov. // Zootexniya, № 2. 2011. S. 5-6.

38. Shendakov A.I. Rezultaty ispolzovaniya potentsiala golishtinskogo skota v Orlovskoy oblasti. // Zootexniya , № 2. 2010. S .6 - 9.

39. Internet saytlari

www.Ziyonet.uz

www.zootexniya.ru

www.hifeyeld.ru

<<http://www.selteh.com>> <http://www.selteh.com>

http://www.treeland.ru/article/kopoba/tado/udoi_moloka.htm

Породы коров

Характеристика пород крупного рогатого скота молочного направления продуктивности

В современном скотоводстве насчитывается примерно 300 пород крупного рогатого скота, наиболее широко распространенных в мире (всего их насчитывается более 1080), а также 121 порода зебу, 29 пород гибридного происхождения (помеси крупного рогатого скота и зебу) и 38 пород буйволов.

Из пород молочного скота по общности происхождения выделяют четыре основные группы, нашедшие в практике молочного скотоводства широкое применение.

1. Породы черно-пестрого скота, ведущего свое происхождение от животных голландской породы, которых разводят почти во всех странах Европы, Северной и Центральной Америки, Австралии, Японии и России. Черно-пестрый скот характеризуется высокой молочной продуктивностью (удой коров за лактацию достигает 5-10 тыс. кг, жирность молока - 3,5-4 %).

2. Породы скота красной масти, происходящие от англеской и красной датской пород. К ним относятся красная польская порода, красный скот стран Прибалтики, Белоруссии, красная степная порода, распространенная в России, Украине, Молдавии. Уровень молочной продуктивности коров составляет 4-6 тыс. кг молока за лактацию с содержанием жира 3,7-4,2 %.

3. Черно-пестрая порода. Эта порода образовалась в результате скрещивания местного скота с черно-пестрым скотом голландского происхождения. В настоящее время она широко распространена в ряде областей Сибири, в Центральных областях России.

Черно-пестрая порода, распространенная в разных районах, неоднородна по экстерьеру и продуктивности. Среди черно-пестрой породы выделяются три наиболее отличающиеся одна от другой группы (отродя): среднерусская, уральская и сибирская.

По экстерьеру коровы черно-пестрой породы в массе характеризуются крупными размерами и несколько удлинённым пропорционально развитым туловищем, глубокой и средней по ширине грудью, широкой спиной и поясницей, крепким костяком. Голова несколько удлинённая, шея средней длины, мускулатура удовлетворительная. Масть черно-пестрая. Масса телят при рождении от 32 до 40 кг. Масса коров сибирского отродя 450-500 кг, среднерусского - 550-650 кг. Быки весят от 860 до 1100 кг. Для черно-пестрого скота характерным является высокая молочная продуктивность с относительно низким содержанием жира. Удои коров, записанных в ГПК (государственная племенная книга), составляют 3700-4200 кг.

По породе жирность молока колеблется в широких пределах - от 2,5 до 5,4 %. Племенная работа с чернопестрой породой скота ведется по повышению продуктивности животных и, главным образом, по повышению содержания жира.

Гоштинская порода (гоштино-фризы или черно-пестрый скот США и Канады). Представляет большой интерес, так как она используется при совершенствовании всех черно-пестрых пород мира. Черно-пестрый скот США и Канады совершенствовался в основном по обильности и жирности молока. При выращивании молодняка, кормлении и содержании коров применялась технология, направленная на создание нового, модернизированного, молочного типа скота. В результате в США и Канаде сформировался большой массив черно-пестрого скота, отличающегося от исходного материала по молочной продуктивности, живой массе, экстерьеру, емкости и размеру вымени. Можно считать, что без скрещивания на базе

исходной породы, путем чистопородного разведения, создана новая голштинская порода.

Живая масса коров голштинской породы 670-700 кг, быков 960-1200 кг, причем коровы могут достигают живой массы 1000 кг, быки - 1250 кг. Бычки при рождении имеют живую массу 44-47, телки - 38-42 кг. Голштины в основном черно-пестрой масти, с черными отметинами разных размеров. Встречающа животные черной масти, с небольшими отметинами на нижней части туловища, конечностях, кисти хвоста и голове. Изредка встречающа животные красно-пестрой масти. Высота в холке у взрослых коров в среднем 144 см, двухлеток -143, быков - 158-160 см. Груд у коров глубокая (до 86 см), достаточно широкая (до 65 см); задняя част туловища длинная, прямая и широкая (ширина зада в маклоках составляет 63 см). Высота в холке у телок к 15-месячному возрасту достигает в среднем 123 см, к 18 месяцам - 126 см. Конституция крепкая.

При разведении скота голштинской породы выявлено много рекордисток по удою и количеству молочного жира за лактасию и пожизненной продуктивности.

Наивысший удой за 305 дней лактасии при двукратном доении был получен от голштинской породы коровы Бичер Арлинда Еллен в 1983 г. Он равнялся 25248 кг молока жирностью 2,82 %; с общим количеством жира за лактасию 712 кг.

Наивысший пожизненный удой получен в 1985 г. в США штате Калифорния от коровы голштинской породы, прожившей 19,5 года, за 5535 дней всех лактасий надоено 211212 кг молока, при выходе молочного жира - 6343 кг. Средний суточный удой у етой коровы за все годы исползования составил 38 кг молока.

Вымя у голштинских коров в основном имеет ваннообразную и чашевидную форму, характеризующая большой емкостью. Индекс его равен в среднем 45-46 % (колеблется 38,4-61,3 %). За сутки при двукратном доении от коров получают по 60-65 кг молока и более. Максимальная скорость молокоотдачи колеблется в среднем от 3,21 до 3,51 кг в 1 минуту.

При разведении голштинов много внимания уделяется испытанию и оценке быков-производителей по качеству потомства и максимальному использованию быков-улучшателей.

Мировая и отечественная практика ведения молочного скотоводства, по мнению Л.А. Пархоменко, показывает, что лучшей и наиболее продуктивной являющейся голштинская порода и она хорошо сочетается с черно-пестрой, что находит широкое применение в селекционных программах. Ежегодный генетический прогресс от голштинизации черно-пестрого скота Германии и Франции выражается в прибавке удоя у коров на 400-800 кг и больше, чем от черно-пестрых сверстников, полученных методом чистопородного разведения (Краббенбург, 1978).

Удой молока

Молочная продуктивность является основным показателем продуктивности коров молочного стада, т. е. коров, предназначенных для получения молока, и вспомогательным показателям продуктивности коров мясного направления, используемых для подсосного выращивания телят. Естественно, что при исчислении показателей молочной продуктивности смешение этих двух показателей неселесообразно. Поэтому в практике статистики сельского хозяйства при определении средней молочной продуктивности из общего числа коров в хозяйствах исключают коров специализированных мясных стад с подсосным содержанием телят, а также коров, фактически используемых для группового подсосного содержания телят, и коров

выбракованных для откорма и забоя. Разумеется, в этом случае из общего надоя молока следует исключить ту часть, которая была получена во время поддоя указанных групп коров.

К показателям уровня молочной продуктивности относят:

- 1) средний годовой удой на фуражную корову;
- 2) средний годовой удой на дойную корову;
- 3) средний удой на дойную корову за период лактации.

Известно, что объем производства продукции животноводства зависит от поголовья и продуктивности животных, обеспеченности скота кормами и помещениями, рационов кормления, породности животных, условий их содержания. Поголовье и продуктивность животных оказывают непосредственное влияние на объем производства и находясь с ним в функциональной зависимости. Все остальные факторы оказывают косвенное влияние.

http://www.трееланд.ру/артислс/копоба/тадо/удои_молока.хтм